

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**MUSIQA TA'LIMI VA TASVIRIY SAN'AT KAFEDRASI**



# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**“Yosh avlod ongiga milliy istiqlol g’oyasini singdirishda musiqa  
madaniyati fanining vazifalari”**

**Xoliqov Dilmurod**

**5111100-** Musiqa ta’lim yo’nalishi bakalavr darajasini olish uchun

**Ilmiy rahbar:**

**D.Mustafaqulova**

**TERMIZ-2017**

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	<b>3</b>
<b>I-bob. “Yosh avlod ongiga milliy istiqlol g‘oyasini singdirishda musiqa madaniyati fanining mazmuni</b> .....	<b>8</b>
<b>I.1. Maktab o`quvchilarini yuksak ma`naviyat ruhida tarbiyalashning mohiyati.</b> .....	<b>8</b>
<b>I.2. Yosh avlod ongiga milliy istiqlol g‘oyasini singdirishda musiqa ta’lim - tarbiyasining maqsadi va vazifalari</b> .....	<b>18</b>
<b>2-bob. “Yosh avlod ongiga milliy istiqlol g‘oyasini singdirishda bolalar qo`shiqlarini kuylashning musiqiy-pedagogik asoslari</b> .....	<b>28</b>
<b>2.1. Inson shaxsiyatining rivojlanishida musiqa tarbiyasi</b> .....	<b>28</b>
<b>2.2. Yosh avlod ongiga milliy istiqlol g‘oyasini singdirishda xalq qo`shiqlarining roli.</b> .....	<b>38</b>
<b>Xulosa va tavsiyalar</b> .....	<b>54</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati</b> .....	<b>56</b>

**Mavzuning dolzarbligi.** O‘zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo‘lidagi bosh g‘oyasi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Bu g‘oya xalqning azaliy ezgu intilishlari, bunyodkorlik faoliyatining ma’no-mazmunini belgilaydi, har bir inson uchun muqaddas bo‘lgan yuksak gumanistik qadriyatlarni o‘zida mujassam etadi. Milliy istiqlol mafkurasining bosh g‘oyasida ozodlik tuyg‘usi ustuvor va yetakchi o‘rinda, Vatan mustaqilligi barcha orzu-intilishlar, amaliy faoliyat va yorug‘ kelajak asosi ekanligidan dalolat beradi. Vatan ravnaqiga xizmat qilmaydigan g‘oya hech qachon milliy g‘oya bo‘lolmaydi. Jamiyatda tadbirkorlik, erkin iqtisodiy faoliyat keng rivojlanayotgani, davlat iqtisodiy qudrati ortayotgani, xalq ma’naviyati boyib, ilm-ziyo salohiyati yuksalayotgani Vatan ravnaqining asosi bo‘ladi. Vatan ravnaqi, avvalo uning farzandlari kamoliga bog‘liq. Bu esa har bir shaxsni o‘zining ma’naviy kamoloti uchun yuksak mas’uliyatni his etishga, o‘z manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg‘unlashtirib yashashga da’vat etadi: yurt tinchligi — bebaho ne’mat, ulug‘ saodatdir, u barqaror taraqqiyot garovi.

Milliy g‘oya O‘zbekistonda yashovchi barcha millat va elat vakillarining tub manfaatlarini, xalqimizning asrlar mobaynida intilib kelgan orzu ideallarini, olijanob maqsad-muddaolarini o‘zida mujassam etadi. Xalqimiz asrlar mobaynida ezgu niyat qilib kelgan mustaqillikni saqlash va mustahkamlash O‘zbekistonning har bir fuqarosining muqaddas burchidir. Buning uchun barcha bir yoqadan bosh chiqarib, muqaddas ona-Vatanning hayotiy manfaatlarini yurakdan his etgan holda ularni ro‘yobga chiqarish uchun faol harakat qilishi, kurashishi zarur. Bu jarayon xalqimizning manfaatlarini, ularni o‘zida mujassam etadigan milliy g‘oyani anglash bilan bog‘liq holda kechadi. Vatan manfaati har bir fuqaro manfaatlari bilan uzviy bog‘langan. Chunki, Vatanning obodligi xalqning farovonligiga bog‘liq. Fuqarosi badavlat mamlakatgina moddiy va ma’naviy to‘kis bo‘ladi. Shunday ekan, milliy g‘oyaning muhim tamoyillaridan biri inson qadr-qimmatini har tomonlama yuksaltirish, xalq farovonligini oshirishdan iborat.

Mamlakatimiz ta’lim muassasalarida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotgani ma’lum. Ayni paytda bu ishlarni jonlantirishga ehtiyoj ham sezilmoqda. Bu ehtiyojni qondirish uchun esa o‘quvchilarni kichik maktab yoshidan

boshlaboq yuksak ma'naviyat egasi qilib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratmoq lozim.

Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek, “Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma’naviy tarbiya masalasi hech shubhasiz beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat’iyat va ma’suliyatimizni yo‘qotsak, bu o‘ta muhim ishni o‘z holiga tashlab qo‘yadigan bo‘lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo‘g‘rilgan va ulardan oziqlangan ma’naviyatlarimizdan, tarixiy xotiralarimizdan ayrilib, oxir oqibatda o‘zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin. Istiqlolimizning tayanchi bo‘lishi ma’naviy barkamol ham ma’nan sog‘lom avlodni tarbiyalab yetishtirishda musiqa san’atining o‘rni nihoyatida beqiyosdir. Musiqa jamiyat rivojlanishining hamma bosqichlarida ham insonni tarbiyalash va ma’naviy boyitishning vositasi sifatida xizmat qiladi”<sup>1</sup>. Kezi kelganda bir holni ta'kidlash lozim: Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari orasida faqat O'zbekiston o'z ma'naviy siyosatiga ega davlat. Bu siyosat Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan milliy mentalitetimizga asosan ishlab chiqilgan. Shu ma'noda bugun milliy tarbiya jarayonini kuchaytirish kerak. Milliy tarbiyaning uch negizi bor: jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya va axloqiy tarbiya. Ta'lim-tarbiya va ma'naviy ma'rifiy sohalardagi barcha ishlarimiz shaxsning ana shu jihatlarini o'stirishga qaratilmog'i kerak. Buning uchun bizdan ko'plar havas qiladigan kuchli bir poydevor – ulkan ma'naviy merosimiz bor. Ularni qunt bilan izchil o'rganib borish ulkan samaralar garovidir.

Milliy qadriyatlarimizning muhim tarkibiy qismi, muayyan ma’noda, uning tayanchi bo‘lgan milliy musiqasiz inson, binobarin, xalq ruhiyatining kuchini, uning his-tuyg‘u va kechinmalarini anglash mumkin emas. Shu ma’noda aytish mumkinki, xalqimiz, xususan, yoshlarning musiqiy didi va madaniyatini yuksaltirmay turib, ma’naviy hayotimizda paydo bo‘layotgan va asoratli iz qoldirayotgan ayrim og‘riqli

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov “Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch” T.Ma'naviyat, 2008-y, 4-b

masalalarni bartaraf etishning imkoni yo‘q. Birinchi Prezidentimiz ta’kidlaganidek; “Bizning milliy an’analarimizga odob axloq qoidalariga mutloqo to‘g‘ri kelmaydigan kliplar, turli tillardagi so‘zlarni qovushtirib yoki talaffo`zini ataylab buzib aytish kabi nomunosib harakatlarni ayrim yosh ijrochilar o‘zi uchun qandaydir bir yangicha uslub deb bilayotgani, menimcha san’atni uning mohiyati va ahamiyatini bilmaslikdan boshqa narsa emas. Madaniy jamoatchiligimiz avvalom bor musiqashunos olimlar, ustoz san’atkorlar, kompozitorlar, yozuvchi va jurnalistlar, ko‘p sonli san’at ixlosmandlari, bunday masalalar bo‘yicha o‘z fikirlarini ochiq bildirib borishlari, shu tariqa yoshlarimizga to‘g‘ri tarbiya berishimiz ham qarz, ham farz deb uylayman”.<sup>2</sup> Buning uchun esa ta’lim muassasalarida o‘tilayotgan musiqa darslari sifatini tubdan yaxshilash, musiqa o‘qitish metodlarini takomillashtirish, yosh avlod qalbiga milliy musiqiy ohanglarni singdirish, ularning musiqiy did va madaniyatini yanada yuksaltirish zarur.

Keyingi paytlarda yoshlar tarbiyasi borasida salbiy holat, ya'ni beg'amlik va loqaydlikka yo'l qo'yilgandek. Ehtimol yangicha qarashlar shakllanayotgan davrda shunday hollar yuz berar. Lekin, bizningcha, har bir kishi o'z kasbini va burchini sidqidildan bajarsa, bunday loqaydlik kelib chiqmaydi. Ota-ona farzand tarbiyasidagi o'z burchini bilishi, mahalla faollari bu borada o'z vazifalarini anglashi va mutasaddi kishilar zimmasidagi ishlarni halol bajarishi natijasida jamiyatimizda loqaydlikning kelib chiqishiga yo'l qo'ymaydi. Ba'zan shunday savol tug'iladi: yoshlar muammolari bilan butun bir tizim shug'ullanmoqda, lekin, ba'zan ularning yovuz niyatlilar tuzog'iga tushib qolayotganligiga sabab nima? Sabab bitta: yoshlarning qiziquvchanligi va beqarorligi. Yovuz niyatlilar yoshlarning ushbu xislati hamda ojizligidan foydalanishga urinishmoqda. Biroq biz bu o'rinda yoshlar va barchaga bitta «qurol» bermog'imiz zarur, bu **yuksak ma'naviyatdir**. Bunga etishmoq uchun ularda avvalo o'z-o'ziga ishonch hissini uyg'otish kerak. O'ziga ishongan kishida yaxshilikka intilish va yomonlikni rad etish, unga qarshi kurashish tuyg'usi paydo bo'ladi. Bu tuyg'u unda sog'lom tafakkurni shakllantiradi. Odamlarga, davlatga,

---

<sup>2</sup> I.Karimov “Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch” T. 2008-y

jamiyatga va kelajagiga bo'lgan ulkan mehrni uyg'otadi. Mustaqillik davrida ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy-madaniy merosga va qadriyatlarimizga tayanib, milliy g'urur va iftixorni yosh avlod ongiga singdirishda milliy istiqlol g'oyasini singdirish bosh omiliga aylandi. Shu ma'noda "Yosh avlod ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishda musiqa madaniyati fanining vazifalari" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishimiz dolzarb muammoga bag'ishlangan deyish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishimiz maqsadi:** o`quvchi yoshlarda qo`shiqlar vositasida vatanparvarlik tuyg`usini shakllantirishning samarali yo'l va usullarini ishlab chiqishdan iboratdir.

**Bitiruv malakaviy ishimiz ob'ekti:** o`quvchi yoshlarda qo`shiqlar vositasida yosh avlod ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishda musiqa madaniyati fani jarayonidir.

**Tadqiqotimiz predmeti:** Yosh avlod ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishda musiqa madaniyati fanining shakl va metodlari.

Tadqiqot davomida quyidagi **vazifalarni** amalga oshirishga harakat qildik:

1. Yosh avlod ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishda musiqa madaniyati fanining vazifalariga doir ilmiy, pedagogik qarashlarni tahlil qilish.

2. Umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida qo`shiqlar vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash holatini o'rganish.

3. Musiqa madaniyati darslari va sinfdan tashqari tadbirlarda o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo'llarini ishlab chiqish.

4. Musiqa madaniyati darslari va sinfdan tashqari tadbirlarda o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishimiz **ilmiy farazini** quyidagicha belgiladik:

o`quvchi yoshlarda qo`shiqlar vositasida yosh avlod ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish mumkin, agarda, qo`shiqlar vositasida vatanparvarlik tuyg`usini shakllantirishga doir ilmiy-metodik bilimlar bilan qurollantirilsa;

- musiqiy ta'lim jarayonida milliy-ma'naviy qadriyatlardan foydalanilsa;

- o'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan sinfdan tashqari tadbirlar muntazam o'tkazib borilsa.

Bitiruv malakaviy ishimizning **nazariy ahamiyati** shundaki, tadqiqot davomida vatanparvarlik tarbiyasiga doir ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlil qilindi va bu tahlillardan pedagogik ilmiy izlanishlarda foydalanish mumkin.

Tadqiqotimizning **amaliy ahamiyati** izlanishlarimiz davomida o'quvchilarini qo`shiqlar vositasida yosh avlod ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishda musiqa madaniyati fanining vazifalariga doir ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalarning qo'llanuvchanligi bilan belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishimiz **metodologik asosini** o'quvchilarini qo`shiqlar vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir falsafiy, pedagogik va psixologik qarashlar, birinchi Prezidentimiz I.Karimov asarlari tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish davomida kuzatish, tahlil, suhbat, anketa so'rovlari kabi **pedagogik ilmiy tadqiqot metodlaridan** foydalandik.

Bitiruv malakaviy ishimiz kirish, ikki bob, to'rtta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **I-bob. “Yosh avlod ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishda musiqa madaniyati fanining mazmuni**

## **I.1. Maktab o`quvchilarini yuksak ma`naviyat ruhida tarbiyalashning mohiyati.**

Ma'naviy kamolot jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri bo'lganligi tarixdan ma'lum. Yuksak ma'naviyat sohibi bo'lgan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan milliy musiqa merosimizga hurmat bilan qarab, ularga asoslangan, umuminsoniy, umumbashariy odob-axloq qoidalariga suyangan, ilm-fan va ma'rifat yutuqlarini o'zining amaliy faoliyatida qo'llay bilgan millatgina kelajakka tomon komil ishonch bilan bora oladi. "Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq", deb yozadi O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov, – ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash Davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi"<sup>3</sup>.

Ma'naviyat - arabcha so'z bo'lib ma'nolar majmui ma'nosini anglatadi. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui. Ma'naviyat mafkura, tafakkur tushunchalariga yaqin va ular bir-birlarini taqozo etadilar. Odamzot paydo bo'lib, ko'p ming yillik taraqqiyot jarayonida o'zini o'rab olgan tabiat, turli hodisalar, voqealar, hayotiy tajribalarni kuzatgan, ularning sabablari va qonuniyatlari to'g'risida mushohada qilgan, turli tasavvur va tushunchalar hosil qilib kelgan. Ma'naviyat insonning butun umri davomida uning kuchiga kuch qo'shadigan, idrok va aql-zakovatini kengaytiradigan va mustahkamlaydigan vositadir. Ma'naviyat va ma'naviy boyliklar, qadriyatlar davlatning, xalqning, millatning, jamiyatning, ayrim shaxslarning bebaho xazinasini va taraqqiyot manbaidir. Mustaqillik tufayli o'zbek xalqining ko'p asrlik boy tarixiy, ilmiy, madaniy va diniy merosini o'rganish, undan xalqning umumiy va bebaho mulki sifatida foydalanishga keng yo'l ochildi. «Ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi», deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov.

Mustaqillik davri milliy istiqlol ma'naviyatini tiklash va rivojlantirish, milliy til va madaniyatni taraqqiy ettirish, milliy o'zlikni anglash, milliy his-tuyg'ular, g'ururni,

---

<sup>3</sup> Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. Toshkent, O'zbekiston. 2000 y. 32 b.



vatanparvarlikni o'stirish va mustahkamlash bilan bog'liqdir. Mustaqil O'zbekistoning taraqqiyoti jamiyat a'zolarining, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy kamoloti, istiqloq g'oyalarining kishilar ongiga, kundalik hayotiga chuquroq sindirishiga bog'liqdir. Mustaqil taraqqiyot yo'lida milliy ong va milliy o'z - o'zini anglash ma'naviy kamolotining asosiy negizidir.

Kelajagi buyuk O'zbekistonni barpo etishda faol qatnashayotgan har bir fuqaro o'z xalqi, millatining ajralmas bo'lagi ekanligini anglashi - milliy ma'naviyat va ongning tarkibiy qismidir. Yaqin o'tmishda hukmron bo'lgan mafkura ma'naviyatni, uni o'rganishni, tadqiq etishni nokerak, noo'rin va umuman zararli ish deb qaragan. Chunki, har bir millatning o'z ma'naviyatini aniqlashi, bilishi va o'z aql-farosatining, ongining tarkibiy qismiga aylantirishi millatni mustahkamlaydi, uning o'ziga bo'lgan e'tiqod va qadr hissini boyitadi. Bu esa istibdod davridagi hukmron mafkuraga zid edi. Ana shu sababli «ma'naviyat» so'zi tilimizdan siqib chiqarilgan edi. Ma'naviyatimiz O'zbekistoning porloq kelajagiga dalil ishonch bilan yuksalib borayotganligini, xalqimizda yuksak insonparvarlik qadriyatlarini tiklanayotganligi va takomillashayotganini ifodalovchi o'ziga xos dunyoqarashdir.

Ilg'or millat va rivojlangan davlat bo'lishning zaruriy shartlaridan biri - boy, ilg'or ma'naviyatga ega bo'lishdir. Faqat moddiy jihatdan boy hamda ilg'or bo'lish jamiyat norasoligining muhim ko'rsatgichidir. Shu sababdan birinchi Prezedentimiz I.A.Karimov ma'naviyat va ma'rifatni ko'tarish, targ'ib qilish, boyitish, aholining keng doirasiga yoyib, har bir fuqaroning yuksak ma'naviy darajasini ta'min etishni eng dolzarb masalalaridan biri, deb qayta-qayta takidlagan. Buning uchun ma'naviyat va ma'rifat sohasida eng jiddiy tadqiqotlar olib borilishi, O'zbekiston xalqi ham o'zbek millatining ma'naviyati nimadan iborat, uning tarixi nimadan va qachon boshlangan, ma'naviyatning qaysi sohalari hozirgi davrda va nima uchun katta ahamiyatga ega, ma'naviyatimiz qanday qilib boyimoqda va xalqaro miqyosda qanday o'rin tutadi, uning xalqaro miqyosda salmog'ini ortirish uchun har birimiz nima qilmog'imiz kerak, - ana shu kabi savollarga jamiyatshunoslik olimlarimiz hozirgi o'tish davrining talablarini ko'zda tutib javob berishlari umummilliy dolzarb vazifalardan biridir.

Ma'naviyat – insonning ruhiy va aqliy olamining majmuidir. Ma'naviyat jamiyatning, millatning yoki ayrim bir kishilarning ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushunchasidir. Inson aqli, qo'li bilan nimaiki qilmasin, uning zamirida fikr, g'oya, bilim, qobiliyat, iste'dod, tajriba, mehnat malakasi sifatida shakllangan ma'naviyat yotadi.

Ma'naviyat tushunchasi insoniy fazilatlarini, kamolotini ifodalaydi. U oliy mavjudot bo'lgan insonga xos xususiyatdir. Aniqrog'i ma'naviyat insonga xos bo'lgan onglilikning amaliy faoliyat taraqqiyotida ijobiy ahamiyat kasb etadigan darajadagi ko'rinishi hisoblanadi. Insoning ma'naviy dunyosi uning xatti-harakati, xulq-atvorini belgilaydi, individning ijtimoiy qarashlari, tasavvuri umuman dunyoqarashi qanday bo'lsa, uning hayotiy faoliyati ham shunday bo'ladi.

Ma'naviyat tug'ma, nasliy xususiyat sifatida irsiyat asosida avlodan-avlodga o'tishi bilan birga ijtimoiy muhit ta'sirida rivojlanib boradi. Kishilar ijtimoiy munosabatlar doirasida bir-birlaridan o'sib, o'rganib ulg'ayadilar. Demak, ma'naviyat insonga mohiyat va muayyan maqsadga qaratilgan faoliyatga yo'nalish beradi. Insonning har qanday faoliyati tafakkuri bilan bog'liq ekanligi nuqtai nazaridan yondashish ma'naviylikni keng va har tomonlama talqin etishga imkon beradi.

Jamiyat taraqqiyotining asosiy omili, avlodlar vorisligidir. Bu vorislik inson ongiga, uning ma'naviyatiga nihoyatda murakkab va ziddiyatli kechadi. Inson o'zining shakllangan ichki ma'naviy olami, bilimdonlik, shuningdek anglagan faoliyati davr talabi bilan o'zgarib turar ekan, bu o'z navbatida ma'naviyat mezonlariga ham ta'sir qiladi. Ammo ma'naviyatning shunday barqaror tomonlari mavjudki, ular davr o'tishi bilan boyib, takomillashib boradi. Ma'naviyat qadriyat sifatida barcha qadriyatlarning qaror topishi o'zgaruvchanlik va barqarorlik dialektikasiga amal qiladi. Ma'naviyatning mohiyati haqida so'z yuritganda, shaxsning ijtimoiy munosabatlar majmui ekanligini e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur. Chunki har bir inson bu yorug' olamda odamlardan ajralgan holda yakka o'zi yashay olmaydi. Balki kishilar orasida bo'lib, ular bilan birga o'zaro muloqotda bo'ladi. Ulardan o'rganadi, o'rni kelganda, ularga o'rgatadi. O'zining g'am–tashvishi va quvonch–sevinchlarini boshqalarga aytadi. O'zi ham kimgadir hamdardlik qiladi,

quvonchlariga sherik bo'ladi. Demak, ana shunday muloqot natijasida kishilar o'rtasida ma'naviy yaqinlik paydo bo'ladi. Har qanday inson yaqin kishilariga, ya'ni ota-onasi, qarindosh-urug'i, yoru-birodarlariga nisbatan ma'naviy yaqinlik sezmas ekan, begonalarga umuman, inson, zotiga nisbatan ham mehr-muhabbati bo'lmaydi. Demak, unda insoniylik mavjud emas. Ma'naviyat zamirida, uning teran va chuqur tomiri sifatida insoniylik yotadi. Zotan, insoniylik tufayli kishilar ma'naviy-axloqiy yaqin bo'ladilar. Buni Forobiy ham alohida ta'kidlab, insonlarni birlashtiruvchi narsa bu insoniylikdir, deb yozgan edi. Insoniyat sivilizasiyasining kelib chiqishi va rivojlanishi ham ma'naviyat bilan bog'liq. H.P. Po'latov ko'rsatib o'tganidek, «sivilizasiya ma'naviyatining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy mavjudligi bo'lsa, ma'naviyat jamiyatda insoniylikni ruyobga chiqarish usulidir. Chunki, chinakam ma'naviyatli kishida insonga nisbatan beqiyos mehr-muhabbat mavjud bo'ladi.

Insondagi insoniylikning vujudga kelishi yoki shunday insonning tug'ilishi, undagi ma'naviyatni voqelikka aylanishini bildirmaydi. Uning ma'naviyatidan boshqalar bahramand bo'lgandagina u voqelikka aylanishi mumkin.

Yuqoridagi ma'naviyat mohiyatini tahlil qilish natijasida bu tushunchaning quydagi ta'rifini berishni maqsadga muvofiq deb bilamiz:

**Ma'naviyat** – insonga xos bo'lgan fazilat bo'lib, u muayyan jamiyat ma'naviy taraqqiyotining asosiy belgisini ifodalaydigan tushunchadir. **Ma'naviyat** – inson mehnati, hayot tajribasi asosida sayqal topib, e'tiqodga, ruhiy mohiyatga aylanadi va inson ongiga, qalbida chuqur o'rnashadi, ajdodlar o'giti bilan singadi.

«Ma'naviyat, - deydi Prezedentimiz I. A. Karimov, - uzluksiz harakatdagi jarayondir. Fikr, tafakkur, his-tuyg'u tinim bilmaganidek, ularning mahsuli o'laroq, ma'naviyat har doim o'zgarish va yangilanishda bo'ladi. Ma'naviyat deganda avvalambor, odamni ruhan poklanishga, qalban ulug'lashga chorlaydigan inson ichki dunyosini, irodasini baquvvat, iymon – e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan kuch, deb tasavvur qilaman».

Bu jarayon o'z-o'zidan yuz bermaydi, balki «ma'naviyatlilik» bilan «ma'naviyatsizlik» o'rtasidagi ziddiyatni hal etish bilan birga boradi. Bu ikki

tushuncha o'rtasidagi munosabatni aniqlash esa «ma'naviy boy» va «ma'naviy qashshoq» degan iboralar mazmunini ochib berishga yordam beradi.

A.Erkaev «ma'naviyat» tushunchasi yoki so'zi ikki o'zakdan kelib chiqqan, degan farazni olg'a suradi. 1-farazda islomdagi «ma'ni» o'zagidan deb, 2-farazda esa qadimgi hind falsafasida ishlatilgan «manas» tushunchalari orqali shakllangan, deb qaraydi. Chunki, «manas» aql degan ma'noni bildiradi.

Ma'naviyat – insonga xos bo'lgan ijtimoiy hodisa bo'lib, inson faoliyati bilan bog'liq ma'naviyat tabiatda yo'q. Shu xususiyati bilan inson hayvondan farq qiladi. Demak, ma'naviy faoliyati bilan insonning ijtimoiy madaniy mavjudot sifatidagi mohiyati nomoyon bo'ladi. Ma'naviyat jamiyatning yoki ayrim bir millatning, shaxsning ichki ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati va idrokini, inson axloqiy normalarini, hamma ijobiy fazilatlarini mujassamlantiruvchi tushuncha. Boshqacha aytganda, ma'naviyat insoniy-ijobiy fazilatlar majmuidir. Ma'naviyat inson, jamiyat madaniyati va san'atining negizi va manbaidir. Inson va jamiyat hayotini ma'lum bir ijobiy yo'nalishga boshqaruvchi omildir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, har qanday jamiyat yoki davlat va millatning iqtisodiy, ijtimoiy jihatdan mushtarak va barqaror rivoji yoki tanazzulga yuz tutishi uni harakatga keltiruvchi kuchlardan biri bo'lgan ma'naviyat, ma'rifat va madaniyat darajalari bilan bevosita bog'liqdir.

Ma'naviyat o'zining tarkibiy asoslariga ega bo'ladi: ular madaniy-ma'naviy meros, axloqiy, badiiy, diniy, milliy qadriyatlar hamda falsafiy, siyosiy, huquqiy mafkuraviy qarashlar, ilmiy nazariyalar va diniy ta'limotlardan tashkil topadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ma'naviyat – bu insonning ezgulikka yo'naltirilgan maqsadlariga erishishi uchun xizmat qiladigan orzu – havaslari, aql-zakovati, belgilari amaliy faoliyati asosida yotgan irodasidir. Yoki ma'naviyat– insonning asl mohiyatini, uning ijtimoiyligini mustahkamlashga, uning aqliy-hissiy ichki dunyosini tarbiyalashga, kamol toptirishga, ijodiy va bunyodkorlik imkoniyatlarini yuksaltirishga, jamiyatning madaniy merosini boytishga xizmat qiladi hamda uning o'zi undan tashkil topadi.

Inson bolasi bu yorug' olamga kelib, faqat biologik mavjudot sifatida hayvoniy instinkt bilan yashay olmaydi. Yeyish-ichish, bola- chaqa orttirish, uy-joy qilish barcha tirik mavjudotlarga xos. Inson esa faqat eyish-ichish, biologik ko'payish uchun yashamaydi. Balki yashash uchun tug'iladi. U shu ehtiyojni qondirish uchun kurashadi. G'alaba shuuriyu, mag'lubiyat alamini boshidan kechirmay, turmushning achchiq-chuchugini totimay turib, yashash mazmunini, anglab bo'lmaydi. Biroq insonlarcha yashash barchaning qo'lidan kelmaydi. Avvalo, inson o'z oldiga muayyan maqsad qo'yadi, unga etishish uchun kurashadi. Ana shu jarayonda u shaxs sifatida shakllanib boradi va o'zligini namoyon etadi. O'z «men»ini topa olmagan insonda shaxsiy tabiat bo'lmaydi. O'z tabiatiga ega bo'lmagan inson chinakam shaxs emas, balki o'zgalarning soyasi bo'lib qoladi. Demak insonning insoniyatga mansub ekanligini muhim ifodalovchi belgidir. Har qanday fuqaroviy jamiyatga nomigagina mansub maqomini belgilamaydi, balki u ma'naviylik mezonlariga to'g'ri kelgandagina, u shaxs darajasiga ko'tariladi.

Inson mavjud, ekan u ma'naviyatiga ega. U ijtimoiy – tarixiy jarayonlar ta'sirida shakllanadi, o'zlinigi namoyon qilib, shaxs sifatida kamol topib boradi. Shaxsning ijtimoiy mavjudot sifatidagi buyuk xislati ham uning aql - idroki, zakovotidir. Insonning ijtimoiy mohiyati uning mayanaviyatini belgilab beradi. Jamiyat rivojlanib borgani sayin ma'naviyat ham boyib boradi. Bu jarayonda shaxs o'zining insoniyatini namoyon qiladi, insoniyatga mansub ekanligini ko'rsatadi.

«Ma'naviyat, - deb yozadi I.A.Karimov, - insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan singadi». Insonning mavjudligi uning jisman borligi bilangina emas, balki ma'naviy dunyosining boy ekanligi bilan bog'liqdir. Zotan, ma'naviyatsiz inson bo'lmaganidek, ma'naviy barkamol insonlarsiz ma'rifatli, madaniylashgan, rivojlangan jamiyatni qaror toptirib bo'lmaydi.

O'zbekiston o'z istiqboliga erishgandan so'ng jamiyat ma'naviy hayotini sog'lomlashtirish va rivojlantirish, inson omiliga katta imkon berish mamlakatimiz oldida turgan eng asosiy vazifalaridan biri sifatida kun tartibiga qo'yilishi ham moziyning ko'p asrlik saboqlariga, jamiyat oldida ko'ndalang turgan yangi vazifalarni hal etishga oqilona yondashishning ko'rinishidir. Milliy o'zlikning

anglash jamiyatimiz hayotida ruy bergan ma'naviy o'zgarishlarning asosidir. Milliy o'zlikning anglash ham shaxsning, xalqning ma'naviy kamoloti bilan bog'liq. Milliy o'zligini, o'z manfaatlarini o'z mamlakati taraqqiyoti istiqbolini chuqur, xolisona anglagan inson va xalqigagina keng rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'la olishini tarix saboqlari har doim isbotlab kelgan.

Jamiyat taraqqiyotidagi yuksalishlar, taraqqiyot imkoniyatlari, komil insonning shakllanishi muayyan ma'naviy muhit va imkoniyatlar bilan bog'liq bo'lgan. Ko'p jihatdan ijtimoiy turg'unlik holatlari, iqtisodiy, siyosiy inqirozlar ma'naviy bo'hroning natijasi tarzida namoyon bo'ladi. Shuning uchun jamiyat taraqqiyotidagi tushkunliklar va yuksalish sababini ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy omillar bilan bir qatorda kishilar ongi, e'tiqodi, dunyoqarashi, komillik darajasidan ham izlash kerak.

Milliy g'oyamizning asosiy maqsadlaridan biri har tomonlama komil insonni tarbiyalashdan iborat. Komil inson esa, ozod shaxs, erkin fikr etuvchi, o'z xalqining ideallari uchun kurashuvchi inson, o'z Vataniga halol xizmat qiluvchi kishilar. Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, «bizning asosiy boyligimiz, rivojlangan davlatlar to'zishga olib boradigan yo'ldagi asosiy tayanchimiz – insondir. Yuksak malakali va yuksak ma'naviyatli insondir. Bu narsa, ayniqsa yosh avlodga tegishli».

Tarixga nazar tashlasak, buyuk shaxslarning faoliyati mohir tashkilotchilik, teran bilimlilik bilangina emas, balki ularning axloqi va odobi bilan ham yuksak ma'no mazmun kasb etgan. Odoblilik boshqalarnigina emas, o'zini ham hurmat qilish deganidir. Ayniqsa, bizning milliy an'analarimizga ko'ra, insonning komilligi, avvalo uning axloqiy etukligida, ajdodlar merosini chuqur o'rganib, uni boytish, katta-kichikka ehtirom ko'rsatish borasidagi harakatlarida ko'zga ko'rinadi. Komillik darajasini har kim o'zicha belgilay olmaydi. Komillik har bir shaxsning o'zidan ko'ra boshqalarga yaxshiroq ma'lum bo'ladi. Komil inson - qullik, mutellik, boqimandalikdan batamom xolos bo'lgan inson. Chunki inson bировga quldek ergashsa, demak ijtimoiy jihatdan u hech narsaga erishmagan bo'ladi. Komil inson o'z maslagi, Vatani, xalqi manfaatlariga yot, zararli g'oyalarni tarqatayotgan kimsalar ortidan ko'r-ko'rona ergashib ketavermaydi, ogoh va faol bo'ladi.

Tariximizda komillik timsollari ko'p: Alpomish - xalqimizning ideal qahramoni, u - aql, fahm-farosat, jismoniy kamolot, mardlik va vatanparvarlikning badiiy timsoli. Hazrat Navoiy uchun ideal - Farhod obrazi. U aqlli va jismoniy kamolot egasi. Farhod Naqshbandiyning «Dil ba yoru, dast ba kor» tamoyilini o'zida mujassam etgan shaxs. Oybekning «Navoiy» romanida esa Navoiy - ideal obraz. Ayni paytda u real tarixiy shaxs, komil insondir.

Bugungi kunda Vatan pedagoglar zimmasiga yoshlarga ibrat bo'ladigan darajadagi barkamol insonlar qilib voyaga etkazish vazifasini yuklamoqda. Mustaqil Vatanimiz oliy maqsad qilib olgan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni barkamol, ezgu g'oyalarni hayotiy e'tiqodiga aylantirgan etuk insonlarga bunyod eta oladi.

Shuning uchun yangilanayotgan jamiyatimizda sog'lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuksak darajaga ko'tarish orqali komil insonlarni voyaga etkazishga yuksak e'tibor berilmoqda.

O'zbek xalqi jahon tarixiy taraqqiyotiga o'zining qadimiy ilm-fani, adabiyoti, san'ati va madaniyati bilan ulkan hissa qo'shgan buyuk millatdir.

Mamalakatimiz Prezidenti «Biz uchun mustaqillik eng avvalo, o'z taqdirimizni qo'limizga olish, o'zligimizni anglash, milliy qadriyatlarni, urf-odatlarimizni tiklash, hammamiz uchun mo'tabar shu zaminda har bir xonadonda tinchlik, osoyishtalik, barqarorlikni saqlashdir».

Darhaqiqat, madaniyat va ma'rifat bilan bevosita bog'liq bo'lgan muammolarni hal etmasdan, mustaqillik haqidagi g'oyalar va tushunchalarni xalqning ongiga chuqur singib, e'tiqodiga aylanib ketishiga erishmasdan turib, mustaqillikni mustahkamlab va barqaror etib bo'lmaydi.

Milliy tiklanish juda keng, chuqur, murakkab tarixiy jarayon bo'lib, u millatimiz hayotining hamma sohalarini – iqtisodiyotini, siyosatini, ma'naviyatini, ilm-fan, til-tarix, urf-odatlar, hunarmandchilik, me'morchilikni ham, inson kamoloti bilan bevosita daxldor barcha masalalarni ham qamrab oladi.

Milliy ma'naviyatimiz rivojida musiqa ham muhim o'rin tutadi. "Barchamizga ayonki, kuy- qo'shiqqa, san'atga muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab oila sharoitida shakllanadi. Eng muhimi, bugungi kunda musiqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishda boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda" <sup>4</sup>. Musiqa mohiyatiga ko'ra inson omilini tadqiq qilish va dunyoni badiiy o'zlashtirishning muhim usullaridan hisoblanib, inson ruhiy, axloqiy kamoloti va ma'naviyatining shakllanishida, yoshlarning ma'naviy tarbiyasida yetakchi omillardan biridir.

Milliy musiqa san'atining eng qadimiy va shu bilan birga, xalq ommasiga keng tarqalgan, uning turmushiga chuqur singib ketgan sohalardan biridir. Musiqa ham real voqelikni aks ettiradi. "Barchamizga ayonki, kuy-qo'shiqqa, san'atga muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Uyida dutor, doira yoki boshqa cholg'u asbobi bo'lmagan, musiqaning hayotbaxsh ta'sirini o'z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Eng muhimi, bugungi kunda musiqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda".<sup>5</sup> Musiqaning milliy ma'naviyatimizga ta'sir kuchi shu qadar kattaki, uning yordamida bemorlarni davolash mumkinligini fan allaqachon isbot qilgan .

Abu Ali Ibn Sino musiqaning ta'sir kuchiga katta ahamiyat berib, ayrim ruhiy kasalliklarni musiqa kuylari vositasi bilan davolash mumkin degan fikrni ilgari surgan edi.

Buyuk faylasuf Abu Nasr Forobiy «Katta musiqa » kitobida, musiqa nazariyasi ohanglarining turlari, kelib chiqish sabablari, kishiga ma'naviy, ruhiy ta'siri haqidagi qimmatli fikrlarini bildirgan.

---

<sup>4</sup> "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" T. "Ma'naviyat" 2008 141 bet.

<sup>5</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., Ma'naviyat, 2008, 141 bet.



Forobiy musiqa ilmida faqat nazariyotchi bo'lib qolmay, amaliyotchi ham bo'lgan. Uning o'zi taniqli musiqachi, ajoyib sozanda va bastakor, yangi musiqa asbobi ixtirochisi sifatida ham shuhrat qozongan. Musiqaning ajoyib sehrliligi, kuchli, mo'jizakor ta'siri haqida fikr yuritib, Forobiy «Ilmlarning kelib chiqishi to'g'risida» asarida shunday deydi: «Bu ilm shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan odamni tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xalqni mukammal qiladi va muvozanatini saqlab turadi».

Xususan, milliy madaniyatda musiqa yuksak tuyg'ular, zavq - shavqli g'oyalar olamini ochib beradi. Odamlarni ma'naviy jihatdan boy, sof barkamol qiladi.

Bola hali qo'lga qalam ushlashni, o'qib yozishni bilmagan vaqtdayoq musiqani his qila oladi. Ko'pincha shu dastlabki taassurotlar musiqaga bo'lgan munosabatlarning shakllanishiga ta'sir qiladi. Shuning uchun umumiy ta'lim maktablarini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarida musiqa ta'limiga ham e'tibor berilgan. Musiqa, avvalo, bolalarning his-tuyg'ularini mayinlashtiradi. Musiqa asarlarini his etish kabi ularda ko'pgina insoniy fazilatlarni uyg'otadi. Albatta, insoniy fazilatlarni kamol toptirishda adabiyot, tarix, sport va boshqa sohalar katta o'rin tutadi. Binobarin, nazm va musiqa doimo yonma- yon yashaydi. Tabiat taassurotlari ostida tug'iladi, qolaversa, bog'cha va maktabda shakllanib boradi. Musiqa darslari o'quvchilarni faqatgina nafosat jihatdan emas, balki keng ma'noda ma'naviy- axloqiy jihatdan ham tarbiyalaydi. Avlodlardan- avlodga o'tib kelayotgan, ne-ne zamonlar zayliga bardosh berib, xalqning orzu- armonlari, o'y - intilishlarini mujassam etgan kuy - ko'shiqlarimiz, maqomlarimiz barcha turdagi maktablar, pedagogika institutlari dasturlaridan kengroq joy olsa yaxshi bo'lar edi. Zamonamizning zabardast yozuvchisi, jahonga mashhur adib Chingiz Aytmatov «Kunda» romanida yozadi: «hayot, o'lim, muxabbat, shavq va ilhom hammasini musiqa aytadi, zotan, biz musiqa vositasida eng oliy hurlikka erishamiz, bu hurlik uchun ongimiz yorishgan zamonlardan boshlab, butun tariximiz davomida kurashganmiz, lekin unga musiqadagina erishganmiz».

Xalqimiz yaratgan musiqa durdonalari, har sonyada - tarbiyada, mehnatda, ijtimoiy munosabatda ma'lum darajada o'z fidoiysini topadi. Milliy musiqa atrofdagi hodisalarni go'zallikni idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi, nozik did va hur fikr bilan qurollantiradi, ma'naviy olamni kengaytiradi. Shu bois musiqani tilsiz falsafa deb bejiz aytishmagan .

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov musiqa san'ati, xususan, Sharq musiqasining tarbiyaviy ta'siriga yuqori baho berar ekan quyidagilarni alohida qayd etadi: "Sharq musiqasi – Sharq falsafasi, Sharq dunyosining uzviy bir qismidir. Sharq musiqasining jahon merosida tutgan o'rni benihoya buyuk... Bu musiqa ming-ming yillardan beri odamlar dilini poklab, ularni ruhan yuksaltirib kelmokda. O'zining yuksak jozibasi bilan dunyo madaniyatiga ozuqa berib, umumbashariy qadriyatlarga munosib hissa qo'shmokda"<sup>6</sup>.

Musiqa inson qalbini yumshatishi, unda iymonga dalolat etuvchi mehr - muxabbat va rahmdillik tuyg'ularini uyg'otishi mumkin. Shu bilan birga, maqomlar mazmunida buyuk davlat mafkurasiga muvofiq bo'lgan tasavvuf ta'limoti g'oyalarini badiiy ifoda etish vazifasi ham qo'yilgan. Tabiiyki, ushbu murakkab ilmiy masalalarni tadqiq etish har tomonlama yetuk musiqashunos olimlar zimmasiga yuklatilgan.

## **1.2 Yosh avlod ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishda musiqa ta'lim - tarbiyasining maqsadi va vazifalari**

Inson tarbiyasi, kamoloti, har qanday jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelgan. Chunki jamiyatning shakllanishi, rivojlanishi, ravnaq topishi shu jamiyatdagi tarbiyasiga bog'liq .

Tarbiya bu shaxsni ijtimoiy iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlariga tayyorlash maqsadida uning ma'naviy va jismoniy rivojlanishiga muntazam ravishda ta'sir etib borishdan iborat bo'lgan uzluksiz jarayon. Shunday ekan

---

<sup>6</sup> Karimov I.A. *Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida*. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. 322-bet.

yoshlarga ta'lim tarbiya berish, ularni mustaqilligimizni mustaxkamlash yo'lida safarbar etish muhim misoldir. Mustaqil Respublikamizda ma'naviyat va madaniyat masalalariga aloxida etibor berib kelinmoqda .

Shuni ta'kidlash lozimki O'zbekistonda inson ma'naviy hayotini shakllantirish maqsadida musiqaning madaniy hayotga chuqurroq kirib borishida keng imkoniyatlar yaratilmoqda .

Bunda ma'naviyat va ma'rifat gazetasi markazi xalqaro madaniy – ma'rifiy aloqalar majmuasi kabi ijodiy muassasalarning tashkil etilishi bastakorlar uyushmasi va jamiyatdagi ijodiy siljishlar «O'zbekiston vatanim manim» nomi bilan mamlakatimizda o'tkazilayotgan an'anaviy tanlovlar madaniy ma'rifiy isloxlarni amalga oshirishda metodlar qo'llanmoqda. Qadimiy va boy tajribaga ega o'zbek milliy musiqa madaniyati istiqbolini amalga oshirish ta'lim tarbiya ishlari bilan shug'ullanish maqsadida asrlar davomida rivoj topib kelganligini ta'kidlash joizdir. Bu maktablarda musiqa ta'limi-tarbiyasi bevosita oshirib borilgan. Ushbu maktablarning faoliyat mazmunida insonni dunyoga kelishidan kamol topib butun umri davomida musiqa haqiqiy ma'nodagi tarbiya vositasi ekanligi o'z ifodasini topgan .

Musiqaning so'z san'ati va adabiyoti bilan o'zviy holda bog'lab o'rganilganligi musiqa nomi va amaliyoti rivojida katta hissa qo'shadi.

Shaxs kamolotida musiqa tarbiyasini oshirish albatta ta'lim metodikasiga bevosita bog'liqdir. Musiqa tarbiyasi metodikasi fan sifatida tizimiga mansub bo'lib o'zining mustaqil o'rniga ega. Bu fan musiqa tarbiyasi metodikasi mazmuni, metodlarini yanada takomillashtirish maqsadida uning qonuniyatlarini o'rganadi. Musiqa tarbiyasi metodikasi tarbiya muassasalarida nafosat, musiqashunoslik fiziologiya, ruxshunoslik fanlarining umumlashtirilgan tajribalariga tayanadi. Musiqa tarbiya metodikasi ayniqsa nafosat musiqashunoslik fanlari bilan o'zviy bog'liq. Nafosat nomi uning metodikasining asosini tashkil etsa, tarbiyaning mazmun va metodlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilarning kuylash faoliyatlaridagi muammolarni hal qilishda metodika fiziologiya tadqiqotlariga taniladi.

Musiqqa tarbiyasi metodikasining mohiyati musiqqa san'ati hamda madaniyati o'sib kelayotgan yosh avlod uchun muhim ahamiyatga ega.

Metodikaning fan sifatida rivojlanishi jamiyatda maorif va musiqqa san'atini takomillashib borishi bilan bevosita bog'liqdir.

Shular bilan birgalikda musiqqa tarbiyasi metodikasi umumiy prinsiplarini ilgari suradi. Bular onglik, badiiy va texnik rivojlanish prinsiplarida ega bu prinsiplar o'quvchilarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirish musiqqa bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish, badiylikni tarbiyalashga qaratilgandir.

Musiqqa asarni ongli idrok etish asar mazmunini ochishda va o'quvchilarga musiqiy tajribalarni to'plashda, ularning ma'naviy dunyosini boyitishda yordam beradi. Musiqqa tarbiyasi emotsional onglik prinsipi uyg'unlashish ko'payishi orqali tinglanadigan asarni to'g'ri baholay olish imkoniyatlarini rivojlantiradi:

Ularning musiqqa qiziqishida didlari tarbiyalab boriladi. Badiiy va texnik bosqich prinsipi asarning badiiy va ifodali ijro etish uchun malakali kadrlar talab etadi. O'quvchilarda kuylash malakalarini egallashlariga e'tibor beradi. O'quvchilarga musiqaning rivojlanish prinsiplari to'g'risidagi tasavvurlarini shakllantirish, qobiliyatlarining rivojlantirilishi natijasida ular yana musiqiy tushunchalarni bilib olishadi. Musiqqa tarbiya metodikasi tarbiya jarayonida ko'pgina omillarga bog'liq ekanligini e'tirof etadi. Kishilarning musiqiy madaniyati faqatgina maktabning ta'siri ostidagina shakllanmaydi. Uydagi albatta tevarak atrof, ommaviy axborot vositalari yaxlit xildagi ijtimoiy vositalar tizimi ham katta rol o'ynaydi. Musiqqa tarbiyasi metodikasi ta'lim metodlarini tashlashda ham pedagogika ravnaqi metodlarini ishlab chiqishda quyidagi muammolar mavjud jumladan:

- A) metodlarning musiqqa tarbiyasi, mazmunini sinovi, ijro bog'liqligi.
- V) o'quvchilarda musiqiy va ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi.

S) musiqiy qobiliyat va ovozning rivojlanishi, musiqani idrok etishning yosh va yakka tartibdagi xususiyatlari.

D) o'quvchilarning rivojlanishida musiqiy faoliyatlarning turli shakllarda foydalanish imkoniyatlari bilan bog'liqligi.

Metodikaning vazifalariga esa o'quv tarbiya jarayonini turlicha shakllantirish yanada rivojlantirish musiqa darslaridan tashqari musiqa mashg'ulotlari, sinfdan va maktabdan tashqari ishlariga to'garaklar, bayramlar, ko'ngil ochish kechalari kiradi. Musiqa tarbiyasi metodikasi musiqa faniga yaqin bo'lgan adabiyot va tasviriy san'at, tarix bilan bog'liq holda o'rganishni taqozo etadi. Bu esa o'quvchilarning tarbiyasini har tomonlama samarali amalga oshirishga muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Musiqa ta'lim tarbiyasining maqsad va vazifalarini amalga oshirishda dars yetakchi omil hisoblanadi.

Chunki o'quvchilarning ommaviy tarzda jalb etilishi maktabda musiqa fani boshqa fanlardan o'zining badiiyligi va qiziqarliligi, zavq-shavq uyg'otishi bilan ajralib turadi.

Eng muhimi musiqa bolalarning aqliy, axloqiy sifatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Musiqa aqlni peshlab, tafakkurni charxlaydi. Musiqa darslari va mashg'ulotlarida o'quvchilar tarbiya va milliy madaniyatimizni o'rganib, bilim saviyasini kengaytirib borishni egallaydi.

Bobokalonlarimizdan Abu-Nasr Al Farobiyning ma'rifat parvarlik g'oyalar tizimida bola, shaxsini tarbiyalashda musiqa san'atining roli maqsadi va vazifalari alohida e'tirof etiladi. Unda inson hayotida musiqaning jamiyati qayd qilinib, «Ey musiqa olami, yaxshiyamki sen borsan, agar sen bo'lmaganda insonning axvoli ne kechar edi»- deya xitob qilinadi. Alloma Abu Ali Ibn Sinoning musiqiy ma'rifiy qarashlarida ham musiqa shaxsning ma'naviy va jismoniy madaniy tabiatiga ta'sir etuvchi qudratli vosita sifatida ta'rif beradi. Bolada juda yoshligidan boshlab musiqa hissiyotini tarbiyalash lozim, bu esa uning ruhiy holatini mustahkamlaydi degan g'oya ilgari suriladi. Alloma mashhur «Tibbiyot qonunlari» kitobida bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun

ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi uxlatish uchun odat bo'lib kelgan musiqiy allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan ba'zan tarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan ehtiyoj hosil bo'lgan deb yozgan edi.

Shunday qilib olimlar, mutafakkirlar musiqa nafaqat insonga samarali ta'sir etuvchi vosita balki o'z mohiyati, jamiyatdagi maqsad va vazifalariga ko'ra alohida bir fan sifatida tadbiiq etishga davrlar o'tib ularni tor fikrlarini ta'lim- tarbiyada tadbiiq etilib, ta'kidlaganidek ommaviy xalq musiqa pedagogikasining vujudga kelishida asos bo'ladi.

Ta'lim tarbiya uslubiyoti maktablari tarkib topib rivojlanib bormoqda. Hozirgi davrda shaxs ma'naviyatini tarbiyalash vazifasi maktabda musiqa ta'lim tarbiyasi ishlarini sifatli bosqichga ko'tarishni taqozo etadi.

Bugungi kunda musiqa, ta'lim tarbiyasining maqsadi va vazifalari nihoyatda muhim.

Musiqa ta'lim tarbiyasining maqsadi va avlodni musiqa me'rosimizga vorislik qiladigan hamda umumbashariy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan yosh qadrlaydigan madaniy inson sifatida voyaga yetkazishdan iborat, buning uchun har bir o'quvchining musiqaga bo'lgan iqtidorlarini rivojlantirib, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqini oshirish musiqadan zaruriy bilim va amaliy malakalar doirasini tarkib toptirish, iqtidorli o'quvchilarning musiqiy rivojlanishlari uchun zaruriy shart sharoitlar yaratib berish maktab musiqa ta'limi tarbiyasining asosiy vazifasidir.

Musiqa ta'lim tarbiyasining maqsad va vazifalari amalga oshirish maktabdagi musiqa darslariga bevosita bog'liq.

Musiqa ta'lim tarbiyasining konsepsiyasida maktabda musiqa fani boshqa fanlar qatori o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Musiqa ta'limini sifatli bosqichga ko'tarish uchun maktabda teng xuquqli fan hisoblanadi.

Bu esa hozirgi zamon o'quvchisidan dars mashg'ulotlariga ijobiy munosabatda bo'lishi, o'quvchilar musiqiy faoliyatlarini oshirishni to'g'ri tashkil

etish va boshqarish faollikni talab etadi. Musiqa dars mashg'uloti sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlarni esa har bir o'qituvchi bilishi kerak.

Birinchidan musiqa tarixi nazariyasi ijrochilikka doir turli namunalardan ayrim mashqlari, musiqa savodi mashg'ulotlari, musiqa tinglash, musiqa ta'limi va adabiyoti, bolalar cholg'u asbobida chalish, ritmik harakatlar bajarish elementlari, musiqada ijodkorlar faoliyatlaridan iborat darslar kiradi.

Ikkinchi musiqa boshqa san'at turlaridan o'zining ifoda vositalari ya'ni «tili» bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot so'z bilan tasviriy san'at bilan, raqs badiiy harakatlar bilan ifodalansa, musiqiy tovushlaridan vujudga kelgan ohang vositasidan foydalaniladi.

Uchinchidan musiqa bolalarda faol hissiy ta'sir ko'rsatadi, ijobiy ko'rsatmalar, kechinmalar uyg'otadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani bo'yicha dasturi bir dars o'zida ta'limning musiqa tinglash, jamoa bo'lib kuylash, musiqa savodxonligi bolalar cholg'u asboblari va ritmik harakatlar bajarish musiqa ijodkorliri kabi bosqichlar bir biri bilan bog'lanib yaxlit holda amalga oshirilishi nazarda tutilishi kerak. Zamonaviy mashg'ulotlardan musiqa idroki yetakchi faoliyat sifatida muhim rol o'ynaydi.

Chunki bu bosqichda o'quvchilar faoliyatida ko'proq o'yin xususiyatlari bo'lib turadi. Shunday qilib ta'lim va tarbiyaning maqsad va vazifalari to'laligicha amalga oshiriladi. Bu jarayonlarni ilmiy uslub jihatdan yetakchi darajada ta'minlash, milliy musiqa ta'lim mazmunini anglash kabi muhim tadbirlar, shubxasiz musiqa tarbiya samaradorligini oshirishishga imkon beradi. Bu esa musiqani maktab hayotida o'quvchilar qalbida keng o'rin egallashi va ularning ma'naviyatlarini shakllantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Bolalar dunyosi beg'ubor olam, eng tiniq tuyg'ular, shirin umidlar qanotli orzular baxtiyor bolalikka, tinch yurt farzandlariga yarashadi. Bolalar qalbi tabiiy ravishda ezgulikka intilib, kattalardan mehr – muruvvat kutib yashaydi. Ularning ongi esa doimo biror yangilikni bilishga bu murakkab olam sirlarini tezrok egallashga harakat qiladi. Odatda bolalar atrofda bo'layotgan voqea - hodisalarga juda qiziquvchanlik bilan qaraydi va turli bilim va fikrlarni osonlik

bilan qabul qilib ulardan chuqur ta'sirlanadi. Ya'ni inson bolalik chog'idanoq kamolotga intilib yashaydi. Komil insonni yaratish ma'naviy sog'lom avlodni tarbiyalash azal - azaldan xalqimizning eng ezgu orzusi bo'lib kelgan. Buyuk ajdodlarimiz Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Farobiy va Alisher Navoiy kabi alloma mutafakkirlarimiz ijodida ham barkamol inson haqidagi yuksak g'oyalar o'z ifodasini topgan. O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab, davlatimiz rahbari va xukumatimiz tomonidan yosh avlod tarbiyasiga juda katta e'tibor berib kelinmoqda va bu yo'nalishda bir qancha qarorlar qabul qilinib, turli tadbirlar amalga oshirilyapti. Biz kelajagi buyuk davlat yaratish uchun kurashar ekanmiz avvalo, ana shu kelajakda yashaydigan va biz boshlagan ishni yanada rivojlantirib takomillashtirishi zarur bo'lgan farzandlarimiz tarbiyasiga katta e'tibor qaratishimiz lozim. Hozirgi davrda jahonda yuz berayotgan voqealar va siyosiy - ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqqan holda xukumatimiz rahbariyati avvalo pedagoglar va madaniy - ma'rifiy soha mutaxassislari oldiga yangi - yangi, zamonaviy vazifalarni quyadi. Yoshlarga hozirgi siyosiy vaziyatni tushuntirish, ularning yosh ongini zaharlashga urinayotgan turli ma'naviy-mafkuraviy hurujlardan ularni o'z vaqtida ogoh etib, himoya qilish eng dolzarb vazifalarimizdan biri bo'lib turibdi. Bu ishni birov ataylab tarqatayotgan o'ta xatarli yuqumli kasallikning oldini olish uchun qilinayotgan shifokorlarning emlashiga o'xshatish mumkin. Afsuski o'ta xafli bu «Yuqumli kasallik», har xil zararli g'oya va mafkuralar ko'rinishida turli yo'llar bilan yurtimizga kirib kelib, eng avval ko'ngli ochiq, ishonuvchan, soddadil yoshlarimiz, farzandlarimiz ongi va qalbini zaharlayapti. Biroq, toki dunyoda taraqqiyotga, ma'naviyatga, adolatga intilish bor ekan jamiyatda ilg'or bunyodkorlik g'oyalari tug'ulaveradi. Bugungi kunda biz shunday g'oya xalqni farovon turmush, yorqin kelajak, buyuk boshlovchi milliy istiqlol mafkurasi g'oyalarini mavjud va bu g'oyalar yanada takomillashib xalqimizni buyuk kelajak sari boshlab boradi. Bizning fikrimizga maktab o'quvchilari ongiga milliy istiqlol mafkurasi g'oyalarini singdirishda boshqa fanlar bilan bir qatorda musiqa madaniyati fanining imkoniyatlari ham juda kengdir. Bu vazifani talab darajasida amalga oshirish albatta ushbu



fandan dars beradigan o'qituvchining siyosiy ongi va bilimiga hamda uning psixologik mahoratiga bog'liq. Demak hozirgi davr musiqa madaniyati fani o'qituvchisi nafaqat professional ijrochi yetuk nazariyotchi bo'lishi balki siyosiy va pedagogik jihatdan ham ilg'or mutaxassis bo'lishi talab etiladi. Ma'lumki musiqa va qo'shiq, musiqiy oxanglar kishilar ongiga, kayfiyatiga va tarbiyasiga juda kuchli ta'sir etadi. Ma'lum bir kuy yoki qo'shiqlar kishilarga turli kayfiyatlar va tushunchalar hosil qilib, hatto ularning dunyoqarashlarining shakllanishida ham muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Buni bilgan ajdodlarimiz ham qadim – qadimdan yoshlar tarbiyasiga musiqaning imkoniyatlaridan keng foydalanib kelishgan. Xalqimizning o'ziga xos turmush tarzi, tafakkuri va dunyoqarashi, hayotga va voqelikka munosabatini ifodalovchi xalq og'zaki musiqiy ijodi namunalari, «Alpomish» dostoni va «Shashmaqom» kabi san'at durdonalari milliy madaniyatimiz va ma'naviyatimizning shakllanishiga salmoqli hissa qo'shib kelyapti. Shu o'rinda biz milliy madaniyat deganda faqat kishilarning tashqi ko'rinishi va yurish - turishini emas, balki ularning haqiqatgo'y ichki madaniyatini, qalb go'zalligini nazarda tutayapmiz, ya'ni musiqa kishilarning avvalo qalbiga ta'sir qilib, uni poklashga xizmat qiladi. Bu xalqimizning milliy odatlarida, ota- onaga, o'zidan kattalarga hurmat, o'zaro samimiyat va mehribonlik kamtarlik, bag'rikenglik, muxtojlarga shavqat kabi ezgu ishlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Yuksak milliy madaniyat va ma'naviyatni rivojlantirish hamda turmush farovonligini ta'minlash uchun birinchi navbatda yurtimizda kafolatlangan tinchlik, siyosiy iqtisodiy barqarorlik mavjud bo'lishi bunga erishishning eng asosiy yo'llaridan biri xalqni, avvalo yosh avlodni milliy istiqlol mafkurasi g'oyalari bilan qurollantirishdir, chunki, jahonni mafkuraviy jihatdan bo'lib olish uchun tinimsiz kurash olib borilayotgan vaziyatda faqat kuchli milliy mafkurasini jamiyatni turli xavf - xatardan muxofaza qila oladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida o'quvchi - talabalar ongida milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasi tushunchalarini shakllantirish ishlari, xususan, o'rta ta'lim maktablarida ham keng qo'yilgan. Jumladan, haftada bir marta bo'ladigan

milliy ma'naviyat darslari tashkil etilgani, har kuni birinchi darslarning O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasini kuylash bilan boshlanishi, turli mavzudagi tarbiyaviy soatlar, maktab ma'muriyati va o'qituvchilari tomonidan uyushtirilayotgan turli tadbir va anjumanlar, uchrashuv suhbatlar bunga misol bo'la oladi. Navoiy shaxridagi o'rta umumta'lim maktablarida ham bu sohada ko'plab ibratli ishlar amalga oshirilyapti. Jumladan, turli ilmiy- amaliy seminarlarda tajribali murabbiy - o'qituvchilar bolalarning yoshiga mos ravishda ularning ongiga milliy istiqlol mafkurasi g'oyalarini singdirishning differensial pedagogik - psixologik dasturini yaratish bo'yicha o'z mulohazalarini bildiruvchi ma'ruzalar bilan chiqishmoqda. Bu o'z navbatida pedagog kadrlarning mafkura borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish ishlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatyapti O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi barcha o'quv fanlari qatorida musiqa madaniyati fanining o'qitilishi bo'yicha ham mutaxassislar oldiga yangi - yangi zamonaviy dolzarb vazifalarni qo'yimoqda, musiqa madaniyati fani birinchi navbatda o'quvchilarning ma'naviy ahloqiy madaniyatini shakllantirishga ularda milliy g'urur va vatanparvarlik nafosat va badiiy didni o'stirishga xizmat qilib, pirovardida ularni haqiqatgo'y komil inson qilib tarbiyalashga o'z hissasini qo'shadi. Shunday ekan yuqorida aytib o'tilgan vazifalardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki musiqa madaniyati fani bugungi kunda o'quvchilarga musiqiy bilim berish qo'shiq kuylashni o'rgatish va ularni estetik jihatdan tarbiyalash bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Hozirgi kunda barcha fan o'qituvchilari pedagog - tarbiyachi kadrlar oldida dolzarb bo'lib turgan eng muhim vazifa yoshlar ongiga milliy istiqlol mafkurasi g'oyalarini singdirishda musiqa madaniyati fanining ham imkoniyatlari juda boy va rang-barangdir. Darsning maqsadi esa o'z navbatida beshta yo'nalishni o'z ichiga oladi.

- 1.Tarbiyaviy maqsad

- 2.Ilmiy maqsad

3. Bilimlarni rivojlantiruvchi maqsad

4. Kasbga yo'naltiruvchi maqsad

5. Milliy mafkura g'oyalarini singdirish maqsadi.

Bu maqsadlar ham albatta bir – biri bilan bog'langan holda amalga oshiriladi. Dars mavzusi maqsadlardan kelib chiqqan holda o'qituvchi har bir jarayonida o'quvchilar ongiga milliy istiqlol mafkurasi g'oyalarini muntazam ravishda singdirib borishi lozim. Lozim buni amalga oshirish uchun o'qituvchi o'zining keng dunyo qarashi pedagogik –psixologik bilimi notiqlik qobiliyati va kasbiy mahoratidan unumli foydalangan holda har bir darsga ijodiy yondoshish zarur bo'ladi. Bu esa o'qituvchidan hozirgi davrda dunyoda sodir bo'layotgan voqealar, ichki va tashqi siyosat siyosiy ijtimoiy vaziyatni tinmay o'rganib, tahlil qilib, turishni va bu bilimlarni darsda o'quvchilarni yoshiga mos ravishda tushuntira olishi talab qilinadi. Hozirgi kunda ko'plab bastakorlarimiz va shoirlarimiz tomonidan zamon bilan ham nafas bo'lgan vatanparvarlik ruhidagi muhim tarbiyaviy estetik ahamiyatga ega bo'lgan qo'shiqlar yaratilyapti va bu jarayon hukumatimiz tomonidan munosib rag'batlantirilayapti. Musiqa madaniyati fanining boshqa aniq fanlardan farqli tomoni shundaki u doimo zamon bilan hatto faollar an'anaviy bayram va milliy qadriyatlarimiz bilan hamohang holda olib borishni o'qituvchidan o'zluksiz ijodiy faoliyatni talab etadi. O'qituvchi har bir darsda o'quvchilarga «Endi esa milliy istiqlol mafkurasi haqatda gaplashamiz» - deb 5-6 minut ma'ruza o'qishi kerak emas, aksincha u har bir dars mavzusidan albatta ijodiy foydalanib, dars mavzusining mazmunidan kelib chiqqan holda asta sekinlik bilan milliy istiqlol gaplarini o'quvchilarga singdirib borishi maqsadga muvofiq deb uylaymiz. Aks holda doim bir xilda takrorlanadigan gaplar o'quvchilarni zeriktirib quyishi va bu butunlay kutilmagan natijani berishi mumkin. Ma'lumki milliy istiqlol mafkurasi o'z mohiyati mazmuniga ko'ra barcha sohaga tegishli siyosiy ijtimoiy, iqtisodiy ma'naviy – ma'rifiy, tarbiyaviy milliy va boshqa g'oyalarni o'z ichiga qamrab oladi. Bu borada o'qituvchi uchun dars jarayonida ijodiy faoliyatlar uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Mutaxassislar aytadigan bo'lsa Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov aytadi milliy istiqlol g'oyasi bugungi kunda tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan tashqi dunyoda o'zligimizni qanday buyuk ajdodlar merosiga, necha ming yillik tarix betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanligimizni his etib, yashashga bu boyligimizni asrab avaylab demokratik qadriyatlar butun jahon taraqqiyoti bilan oziqlantirib yangi o'sib, kelayotgan avlodga yetkazishga xizmat qilmog'i zarur.

Shunday ekan biz pedagoglar bilan bugungi kunda har qancha ishlasa arziydigan keng ijodiy faoliyat maydoni ya'ni barcha fuqarolar qatorida vatanimizning buyuk kelajagi uchun faxr bilan mehnat qilishi imkoniyati borligidan minnatdormiz.

## **2-bob. “Yosh avlod ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishda bolalar qo`shiqlarini kuylashning musiqiy-pedagogik asoslari**

### **2.1. Inson shaxsiyatining rivojlanishida musiqa tarbiyasi**

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch” asarida insonda yuksak ma'naviyatning shakllanishida musiqa san'ati katta ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlab ko'rsatgan. Chunki, musiqa bolalarning ruhiyatiga va hissiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatish xususiyati orqali ularni quvontiradi, yaxshilikka va go'zalikka yetaklaydi, nafosat olamiga olib kiradi. Shunday ekan, umumta'limmaktablarida musiqa madaniyat darslariga bolalar qiziqishining yanada kuchayib borishi musiqa rahbari oldiga katta vazifalarni qo'yadi. Negaki, musiqa o'qituvchilari tomonidan tashkil etilgan musiqiy mashg'ulotlar bolalarni barkamol inson bo'lib yetishishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'z navbatida musiqa o'qituvchilari bolalarni sevishi, o'z kasbiga oid fanlardan puxta bilimga ega bo'lishi, yuksak madaniyatli, keng dunyoqarashga ega inson bo'lmog'i lozim. Uning musiqa mashg'ulotlariga ijodiy yondoshib zamon bilan hamnafas qadam tashlashi zamonaviy texnika vositalaridan, pedagogik va axborot

texnologiyalaridan samarali foydalana olishi muhim ahamiyatga ega. Zero har bir bolalarda musiqa madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda musiqa mashg'ulotlarining imkoniyati kengroq bo'ladi.

Psixologlarning ta'kidlashicha, yosh, hali tafakkuri shakllanmagan bola tarbiyasiga dastlabki eshitgan ohang, dastlabki o'qigan asari, tinglagan musiqasi umr bo'yi ta'sir qiladi. Bola hali qo'lga qalam ushlashni, o'qishni, chizishni bilmagan yoshidayoq ma'lum darajada musiqa eshitish va his qilishini nazarda tutadigan bo'lsak, musiqaning shaxsning har jihatdan komil inson bo'lib voyaga yetishidagi o'rni yana bir bor yaqqol namoyon bo'ladi. Shu ma'noda musiqani bolalar bog'chalari, umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida targ'ib-tashviq qilish ishlari yanada kengroq yo'lga qo'yish zarur.

Eramizdan oldingi IV asrda grek faylasufi Platon shunday degan edi: «Eng katta tarbiyaviy omil musiqiy san'atda mujassamlashgan. Zeroki, ohang (ritm) va uyg'unlik (garmoniya) bolalik chog'ida qalbgacha chuqur yo'l topadi va salobat baxsh etib, uni ko'rkam qiladi. Bu esa musiqiy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishni taqozo etadi, aks holda uning teskarisi bo'lib chiqadi».

Uning shogirdi Aristotelt(Arastu) ham komil ishonch bilan mazkur fikrni quvvatlaydi. «Musiqa kishi ruhining ahloqiy tomoniga ma'lum darajada ta'sir etadi. Bas, shunday ekan, u yoshlarning tarbiyasida muhim ahamiyatga ega».

Buyuk rus yozuvchisi Fyodor Dostoyevskiy «Dunyoni go'zallik qutqaradi» deb bejizga aytmagan. Zero, go'zallik bor joyda inson uni his etib, anglab ko'nglida ezgulikka yo'g'rilgan fazilat uyg'onadi. Shu ma'noda aytish mumkinki, insonda go'zallik tuyg'usini kamol toptirish bevosita ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalashda katta o'rin tutadi. Bu jarayonda esa tarixan shakllangan va muayyan davrda amal qilinayotgan badiiy ijod namunalarida, xususan, musiqada mujassamlashgan go'zallikni his eta olishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Insondagi eng nozik tuyg'ularni shakllantirish va tarbiyalashdek qudratli kuchga ega bo'lgan musiqa shaxsni kamol toptirishda inson va uning mohiyati masalasini, ma'rifatlilik ko'lamini, ma'naviy kamolotda musiqa ega bo'lgan imkoniyatlarni aniqlashda asqotadi.

Ma'lumki, inson kamolotida muhim o'rin tutuvchi ma'naviy va axloqiy poklik, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat, keksalarga hurmat singari insoniy fazilatlar o'z-o'zidan shakllanmaydi. Ularning asosida yosh avlodga oila, bog'cha,

umumiy oʻrta, oʻrta maxsus, kasb-hunar hamda oliy taʼlim tizimida amalga oshirilayotgan taʼlim-tarbiya mazmuni, gʻoyaviy yoʻnalishi va samarasi mujassamlashgan.

Binobarin, oʻsib kelayotgan yosh avlodning zamon talablariga mos, barkamol inson boʻlib shakllanishlari uchun ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlari - aqliy, maʼnaviy-axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, ekologik, iqtisodiy tarbiyalar bilan qatorda musiqiy tarbiyani tashkil etishga ham yangicha nuqtai nazardan yondashish, ularning samarali yoʻllarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi. Bu esa taʼlim-tarbiyadagi eng muhim vazifalardan biridir.

Maʼlumki, tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama oʻstirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Turli zamon va makonda tarbiya mohiyatan turlicha ifodalab kelingan boʻlib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan. Zamonaviy talqinda tarbiya jarayoni oʻqituvchi va oʻquvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar oʻrtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yoʻnaltirilgan samarali hamkorlik jarayoni demakdir. Zero, tarbiya jarayonida oʻqituvchi va oʻquvchilarning faoliylari tashkil etiladi, boshqariladi va nazorat qilinadi.

Umuman olganda, tarbiya mohiyatiga koʻra umumiy va individual xarakterga ega boʻladi. Ilgʻor pedagogika esa umumiy va individual maqsadlar birligi va uygʻunligini namoyon etadi. Demak, bu jarayonda ana shu uygʻunlikka eʼtibor qaratilishi lozim boʻladi.

Hech kimga sir emaski, bugungi tezkor davrga hamohang ravishda inson dunyoqarashi, tafakkuri, inchinun, tarbiyasi ham oʻzgarib bormoqda. Biroq fan-texnika qanchalik jadal rivojlanib, jamiyat hayotida muhim joy olib, ishlab chiqarish jarayonlarining tezlashuviga qanchalik samarali taʼsir etmasin, yoshlarni komil inson etib tarbiyalash, ularga jahon andozalari darajasida taʼlim berish aslo mazmun-mohiyatini yoʻqotgani yoʻq. Fikrimizcha, bu borada chinakam musiqa namunalari va ularda ilgari surilgan ezgu gʻoyalarni yosh avlod ongiga singdirib borish ham ijobiy natijalarni beradi. Zotan, musiqaning ajoyib sehrli kuchi, moʻjizakor taʼsiri haqida

fikr yuritgan Abu Nasr Forobiy «Ilmlarning kelib chiqishi to'g'risida» asarida shunday deydi: «Bu ilm shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan odamni tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xalqni mukammal qiladi va muvozanatini saqlab turadi».

Nazarimizda, musiqiy tarbiyani avvalo, oilada tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Chunki bola shaxsini shakllantirishda va rivojlantirishda oiladagi muhitning ta'siri juda katta bo'lib, boladagi eng muhim individual xususiyatlar oiladagi mavjud ijtimoiy psixologik muhit ta'sirida shakllanadi. Bunda ota-ona, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabat, san'at, madaniyatga bo'lgan munosabatlarni ham qayd etish joiz.

Ma'lumki, yaxshi oilaviy muhitda tarbiyalangan bolaning hayot haqidagi, turli voqea-hodisalar, urf-odatlar, san'at, madaniyatga oid taassurotlari ko'pincha ijobiy tarzda kechadi. Oiladagi birgalikda televizor ko'rish, konsert tomosha qilish, teatr, konsert tomoshalariga borish, o'z taassurotlarini o'rtoqlashish kabi muloqotlar bolalar dunyoqarashini o'stirib, hayotiy voqea-hodisalarni aks ettiruvchi badiiy adabiyot, san'at musiqani mohiyatini tushinishga, badiiy va g'oyaviy idrok etishga olib keladi.

Shubhasiz, hozirgi globallashuv shiddati odamlar, ayniqsa, yosh avlodning didi, tasavvuri va dunyoqarashiga zang tushirmoqchi, murg'ak qalblarni robotlik va loqaydlik girdobi tomon tortmoqchi bo'layotgan bugungi kunda barcha ezgu amallarning beshigi, avvalo, oiladir. Shuning uchun ham mamlakatimizda oila tarbiyasiga davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida alohida e'tibor qaratib kelinayapti. Jumladan, davlatimiz rahbari tashbabbusi bilan 2012 yilning Mustahkam oila yili deb e'lon qilinishi ham ana shu yuksak e'tibor samarasidir.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, oila sog'lom ekan - jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan - mamlakat barqarordir. Bundan ko'rinadiki, oilada tashkil etiladigan mashg'ulotlar bolaning shaxs sifatida shakllanishiga hissa qo'shish bilan birga kelgusida jamiyat mustahkamligini ta'minlashga, ya'ni jamiyatning keng dunyoqarashga ega, ongli a'zosini tarbiyalashga xizmat qiladi.



Estetik tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblangan musiqa inson shaxsini shakllantiruvchi yetakchi omillardan biri bo'lgan ta'lim-tarbiya bilan uyg'unlikda yoshlarning borliq, insonlar haqidagi bilimini kengaytirib, ijodiy qobiliyatini va iste'dodini o'stiradi hamda ularda yuksak ma'naviy fazilatlarining tarkib topishiga yordam beradi. Shundan kelib chiqqan holda aytadigan bo'lsak, musiqiy tarbiyani oilaviy hamkorlikda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda avvalo, hamkorlikni maqsadli yo'lga qo'yish, samarali ish shakl va usullaridan foydalanish o'quvchilarni madaniyat va san'atning muayyan sohalariga izchil bog'lanib qolishlari, kelajakda yetuk xonanda, sozanda, bastakor-kompozitor bo'lib yetishishlariga zamin yaratadi. Buning uchun avvalo:

- musiqa o'qituvchilari har bir o'quvchining oilasi bilan yaqindan tanishishi, doimiy aloqani yo'lga qo'yishi;
- o'quvchilarni musiqa san'atining muayyan turlariga qiziqishi, qobiliyatiga qarab, ularni ota-onalarini bu haqda xabardor qilish, maktabda va oilada mustaqil qo'shimcha shug'ullanishlari uchun shart-sharoit yaratishi;
- musiqa darslariga, to'garaklar, ijodiy markazlarga qatnashishlarini ota-onasi tomonidan ham nazorat qilib borilishiga e'tibor qaratish;
- o'quvchilar ishtirok etadigan turli madaniy-ommaviy tadbirlar, ko'rik-tanlovlar, konsertlarga ularni ota-onalarini taklif qilish;
- ota-onalar uchun maxsus ma'ruza konsertlar, madaniyat, san'at vakillari bilan uchrashuvlar tashkil etish;
- o'quvchilarga individual topshiriqlar berish, mustaqil shug'ullanishlari va topshiriqlarni bajarilishi yuzasidan ota-onalar fikrlarini so'rab turish kerak bo'ladi.

Fikrimizcha, bunday hamkorlik bo'yicha tashkil etiladigan ishlar o'quvchilarni musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishlarini, ularning musiqa bo'yicha individual qobiliyat va iqtidorlarini o'stirishga, iste'dod kurtaklarini keng ochishga, asosiysi, komil inson bo'lib shakllanishida katta o'rin tutadi.

Insonning shaxs sifatida shakllanishida yetakchi omillardan yana biri muhitdir. Muhit deganda odatda, kishiga ta'sir etadigan tashqi voqealar yig'indisi tushuniladi. Muhit o'z navbatida - tabiiy muhit, ijtimoiy muhit, oila muhiti va boshqalarga

bo‘linadi. Insondagi musiqiy layoqatning rivojlanishi va shakllanishi uchun ijtimoiy va oila muhiti muhimdir. Zotan, odob-axloq, fe‘l-atvor - shaxsning barcha ruhiy sifatlari faqat muhit va tarbiyaning o‘zaro ta’siri asosida vujudga keladi. Bolalarning musiqa ijrochiligi malakalarini rivojlantirishdagi eng muhim shartlardan biri - ularning musiqiy qobiliyatlarini shakllantirishdir. Chunki musiqiy qobiliyatlar - musiqani ritmik his qilish, ladni his qilish, musiqiy eshitish, musiqiy xotira, musiqaga emotsional ta’sirchanlik bolalarda ijrochilik malakalarini rivojlantirish omili hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda pedagog N.V.Vetlugina «... musiqa kechinmalari aslini olganda doimo sensor qobiliyatga asoslanadi, chunki musiqa eng oddiy ohanglar, murakkab obrazlar va eng avvalo hissiyotlar orqali idrok etiladi va musiqiy qobiliyat rivojlanadi», - deb ta’kidlagan.

Bolaning shaxs bo‘lib shakllanishida maktabgacha ta’lim muassasalari, ya’ni bog‘chalarda yo‘lga qo‘yilgan musiqa mag‘ulotlarining ham o‘rni katta. Zotan, ta’lim sohasining birinchi pog‘onasi bo‘lgan ushbu davrda bolalar ehtiyoji va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Bog‘cha yoshidagi bolalar nutqni bir muncha to‘la o‘zlashtirganlari va juda harakatchanliklari tufayli ularda o‘zlariga yaqin bo‘lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo‘lish ehtiyoji tug‘iladi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Bog‘cha yoshidagi bola tabiatiga xos bo‘lgan kuchli ehtiyojlardan yana bir uning har narsani yangilik sifatida ko‘rib bola uni har tomonlama bilib olishga intilishidir.

Bog‘cha yoshdagi bolalar layoqatida va ularning psixik jihatidan o‘shida qiziqishning roli ham kattadir. Qiziqish xuddi ehtiyoj kabi bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab psixik hodisa desa bo‘ladi. Bu vaqtda bolalarga o‘rgatilgan musiqa bolaning hissiyotini o‘stirishda yordam berib, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi, qalbida kuchli emotsional tuyg‘u uyg‘otadi. Eng muhimi, musiqa yordamida uning badiiy idroki o‘sib, qalbida uyg‘ongan qiziqish keyingi musiqiy rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra musiqani idrok etishning vazifasi va mazmunini aniqlash muhimdir. Bular shaxsning har tomonlama rivoji, jumladan estetik tarbiyasi vazifalari bilan bog‘liq umumiy maqsadlar bilan belgilanadi.

Voqelik ta'siri ostida paydo bo'ladigan sezgi va idrok hissiyotning asosiy manbai ekani psixologiya fanida asosiy tamoyillardan biri sifatida ilgari suriladi. Shunga asoslanib aytadigan bo'lsak, bolalarda bosh miya va sezgi organlarining taraqqiyoti yetarli darajada yuksak bo'lmaganligi tufayli ularda sezuvchanlik bir muncha ta'sirli bo'ladi. Musiqani to'la to'kis idrok etish uchun diqqat, xotira va musiqiy tafakkur zarur va muhimdir. Ana shundagina insonning tasavvuri yordamga keladi va estetik hissiyot shakllanadi. Musiqiy bilimlarni o'zlashtirishdan maqsad bolalarning musiqiy asarning lad, o'lchov, sur'at, registrini aytib berishlari emas, balki musiqaning yuqoridagi ifoda vositalari orqali ularda shaxsga xos bo'lgan xususiyatlarni: ijodiy qobiliyat, erkin yo'naltirilgan diqqat, musiqiy xotira, tasavvur, faollikni, tashabbuskorlikni shakllantirishdir.

Musiqaning bola hissiyoti va intilishiga, uning mazmunini tushunish va his etishga katta ta'sirini hisobga olishning ijobiy natijalari yuqori bo'ladi. Zero, musiqali obrazlarning shakllanishining asosiy manbai tabiat, atrofimizdagi dunyo va undagi go'zalliklarni idrok etishga bevosita bog'liqdir. Shu borada musiqa mashg'ulotlari mazmuni bolalar tomonidan bajaradigan qator faoliyatlarni taqozo etadi. Bulardan tinglash, kuylash, musiqiy ritmik harakatlar, musiqa cholg'ularida ijro etish jarayonida bolalar ijrochiligi va ijodkorligi malakalari shakllanadi.

Ma'lumki, tarbiya inson ongi, his-tuyg'ulari, tasavvuri, e'tiqodi, dunyoqarashi, xatti-harakatlari va xulq-atvoriga doimo ijobiy ta'sir o'tkazib kelgan. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, musiqiy tarbiya go'zallik va xunuklikni, yuksaklik va tubanlikni, shodlik va kulfatni anglashga ham o'rgatadi. Musiqa tili barchaga tushunarli va yaqin bo'lgani uchun musiqa tovush tovlanishlari orqali fikr va tuyg'ularni aks ettiradi. Musiqiy tarbiya faqat narsa va hodisalarning mohiyatini anglash, go'zal jihatlarini ko'ra bilishnigina emas, balki ichki go'zallikni his qilish xislatini ham tarbiyalaydi. Insondagi xulqiy go'zallikni qadriga etishga undaydi. Bunda musiqaning falsafiy mohiyati ham namoyon bo'ladi. E'tibor berib qaraydigan bo'lsak, ajoyib musiqa asarlari chuqur falsafiy mazmun bilan sug'orilgan bo'lib, ularda hayot va o'lim, shaxs va jamiyat, ezgulik va zulm, qudrat va zaiflik kabi masalalar aks etadi.

Insonning doimiy yoʻldoshi boʻlgan musiqa har doim rivojlanib turuvchi jonli sanʼat hisoblanadi. Insonning ichki kechinmalarini aks ettirishga qodir boʻlgan musiqa sanʼati estetik tarbiyaning muhim omilidir. Shu bois oila, bogʻcha, maktabda musiqa mashgʻulotlarini maqsadga muvofiq tarzda uyushtirish yosh avlodning ichki dunyosini boyitish va sanʼatni toʻgʻri tushunishdagi samarali yoʻldir.

Baʼzi sanʼatshunoslarning fikriga koʻra, musiqa ham fan, ham sanʼatdir. Bunday ilmiy qarashni ilgari surgan olimlarning taʼkidlashicha, musiqa asl mohiyatiga koʻra fizika va matematikaga asoslanadi, bu fanlar oʻz navbatida musiqani fanga aylantiradi. Albatta, bu fikrlarni inkor qilmagan holda aytish mumkinki, musiqa asariga shu fanning turgʻun tushunchasi sifatida ham qarab boʻlmaydi. Chunki musiqa doimo rivojda boʻlib, umummadaniy taraqqiyotda salmoqli oʻrni bor.

Mashhur yozuvchi Stendalning fikricha, musiqa sanʼatning ifodali turi tizimiga kiradi. Boshqa sanʼat turlari singari musiqa ham voqea-hodisalarni ifodali aks ettiradi. Ammo u meʼmorchilikdagi kabi fazo va moddiy ashyo oʻlchovlari bilan belgilanmaydi. Musiqa koʻrish orqali emas, balki eshitish vositasida idrok qilinadi. Musiqa mavzui oʻz xususiyatiga ega boʻlib, inson va voqelikdagi barcha tomonlarni qamrab ololmagani uchun, eng avvalo, inson ichki maʼnaviy dunyosini, uning tuygʻu va kayfiyatini ifodalaydi, voqelikning his-tuygʻuli qiyofasini yaratadi.

Musiqa sanʼatining inson tarbiyasida muhim oʻrin tutishini, ayniqsa yoshlarni tarbiyalashda imkoniyati keng ekanini maʼrifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ham eʼtirof etgan. Xususan, 1922 yilda «Inqilob» jurnalining birinchi sonida bosilgan «Sanoyiʼ nafisa» maqolasida odamlar qadim zamonlarda «dunyo yuzida inson bolalarining sanoyiʼ nafisaga qoʻygan birinchi odimlar»ini, «dillaridagi taʼsir va hissiyotni toʻxtata olmaganlar va erishilgandan qanoatlanmasdan tinch yotmaganlar, jim turmaganlar», «tabiatning yasagan va oʻsdirgan, vujudga chiqargan jonlik va jonsiz narsalarini sinchiklab tekshirib qaray boshlaganlar»i haqida fikr yuritadi.

Umuman olganda, musiqa murakkab hissiyotlarni oʻzida mujassamlashtirgan kayfiyatni ifodalashda keng imkoniyatga ega. Kayfiyat umumlashgan xususiyatga ega boʻlgani uchun undan ikkilamchi tomonlar chiqarib tashlanadi va insonning

voqelikka bo'lgan tuyg'u munosabatini belgilaydigan eng muhim tomonlari ajratib olinadi. Musiqaning kuch-qudrati shundaki, u shodlanish, qayg'urish, hayol surish, bardamlik, jasurlik, tushkunlik va shunga o'xshash inson ruhiy holatlarini xususiy va umumiy tarzda o'zaro bog'liqlikda, bir-biriga singib ketishida namoyish qila oladi. Musiqa «til»i barcha qismlarning uzviy birligini, asar shaklini ifodalaydi. Shakl – musiqa mazmunining moddiy ifodasidir. Bastakor fikri, tuyg'ulari, tasavvurlari eshituvchilarga musiqiy shakl orqali yetib boradi. Shu bois musiqa «til»ini egallashga, uning mazmun-mohiyatini anglashga, musiqadagi fikrlar, tuyg'ular, kechinmalar boyligini o'zlashtirishga keng yo'l ochadi.

Ko'pchilik yaxshi biladiki, ertaklarda qahramon musiqa orqali ulkan dev yoki ilonni sehrlab, uning changalidan o'zi yoki sevgan qizini xalos etadi. Chuqurroq nazar tashlaydigan bo'lsak, buning zamirida musiqaning ko'ngilni ezgulikka undovchi san'at ekani o'z aksini topgan. Shu ma'noda, o'sib kelayotgan avlod uchun musiqa ijobiy sifatlarni shakllantiruvchi vosita hisoblangan. Musiqa ashula va raqs tarkibida ham vujudga keladi. Keyinchalik esa badiiy ijodning mustaqil turiga aylanadi. U o'ta o'ziga xos badiiy ifoda «til»iga ega bo'lib, maxsus ishlab chiqilgan va tanlab olingan tovushlar ana shu «til»ning manbaidir. Albatta, musiqa shaxsni shakllantirish, uning ijobiy fazilatlarining yo'nalishlarini o'z-o'zidan belgilab bermaydi. Zotan, tarbiyaviy ta'sirning eng muhim jihatlari musiqiy asarning g'oyaviy mazmuniga bog'liqdir. Ana shu bilan musiqiy-estetik tarbiyaning vazifalari belgilanadi.

Musiqiy-estetik tarbiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, u shaxs sifatida shakllanayotgan bolalarning hissiyoti va fikrlarini takomillashtiradi. Shu bois bolalar tinglaydigan yoki ijro etadigan musiqa asarlari o'z xarakteri, janri, takror bayon qilish usullariga ko'ra har xildir va ular o'rtasidagi aloqa o'xshashligi va farqi, muvofiq va zidligiga ko'ra o'rganiladi.

Qayd etish joizki, inson shaxsining har tomonlama kamol topishi aqliy, axloqiy estetik va jismoniy tarbiyaning uzviy aloqasi tufayli ro'yobga chiqadi. O'z navbatida g'oyaviy-axloqiy ta'sirini amalga oshirishga to'g'ri ishlab chiqilgan hamda

bolalarning yosh imkoniyatlariga muvofiq tanlangan repertuar samarali yordam beradi.

Musiqqa mashg'ulotlarida bilish va aqliy faoliyatlar ham faollashgani bois odamlar musiqani diqqat berib tinglash barobarida ko'plab ma'lumotlarni bilib oladi. Biroq bunda ular musiqaning eng umumiy xususiyatlaridan eng yorqin obrazlarnigina idrok etadilar. Biroq bu jarayonda tinglash, uning ifoda vositalarini farqlash, qiyoslash, ajratish vazifalari qo'yilgan bo'lsa ham emotsional munosabat o'z ahamiyatini yuqotmaydi. Bu aqliy harakatlar inson hissiyoti va kechinmalari doirasini boyitadi hamda kengaytiradi.

Ko'pchilik tadqiqotchilar musiqiy qobiliyat boshqa har qanday qobiliyatdan ertaroq paydo bo'la boshlashi mumkinligini ta'kidlaydilar. Bu fikrlarda ham jon bor. Chunki alohida vaziyatlarda har uch musiqiy qobiliyatning ilk bor namoyon bo'lishi hayotning birinchi yilidayoq kuzatiladi. Uch yoshda esa kuy eshitish va ritm hissiyoti yetarlicha baland rivojlanishini kuzatish mumkin.

Musiqiy qobiliyatning erta namoyon bo'lishi, shubhasiz, yaxshi musiqiy iqtidor ko'rsatkichlaridan biridir. Ammo erta namoyon bo'lmaslikni musiqiy qobiliyatning sustligi yoki yo'qligining qaysidir darajadagi ko'rsatkichi, deb hisoblash birmuncha noto'g'ri qarashdir. Shu bois bolalarda musiqiy qobiliyatning turlicha rivojlanishi qanday sabablarga asoslanishi haqida aniq bir xulosaga kelish qiyin bo'lib, buning izohi juda xilma-xil va bola shaxsiyatining turli taraflari hamda uning tarbiyalanishining butun tarixiga bog'liq desak, nazarimizda, yanglishmagan bo'lamiz.

Musiqqa san'at sifatida ijtimoiy ong formasi bo'lib, u kishining his-tuyg'ularini ifodalash bilan birga voqelik va davr ruhini ham o'zida aks ettiradi. Mashhur polyak bastkori K.Shimanovskiy «Jamiyatda musiqaning tarbiyaviy ahamiyati» sarlavhali maqolasida musiqaning tabiiy kuch-qudrati haqida fikr yuritarkan, uning ikki qarama-qarshi yo'nalishda – yaratish va buzish uchun ishlatish mumkinligini — kerakli ishga yo'naltirgan holda, tezoqar daryoning suvlaridan foydalanib, foydali va unumli ishlar uchun, ya'ni tegirmonni aylantirish uchun ishlatgandek, musiqqa kuchidan ham unumli foydalanish zarurligini e'tirof etgan. Musiqaning insonga

ta'siri, shaxsning va jamiyatning ruhiy hayotidagi o'zni keng qamrovli muammo hisoblanadi. Ushbu murakkablik va serqirralik musiqa fanining o'ziga xos jihatlarini aks ettiradi. Zero, kuy va uning musiqiy ifodasi kishining hissiyotiga chuqur ta'sir qilib, unda har xil hislarni uyg'otadi, turlicha kayfiyatlarni hosil qiladi. Qo'shiqning matni, g'oyaviy mazmuni faqat hissiyotga emas, balki tinglovchilarning ongiga ham ta'sir qilib, ularni hayajonlantiradi va fikrlashga majbur etadi. Kishilarda asarda aks etgan ma'naviy muammolarga nisbatan muayyan munosabat uyg'otadi. Bunday ta'sir g'oyat murakkab va qadratlidir.

Muxtasar aytganda, musiqa inson shaxsiyatining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadigan san'at hisoblanadi. Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib umrbod musiqadan zavq oladi va cheksiz ma'naviy kuch-qudratga ega bo'ladi. Shu sababli musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, insonni atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga, ularni qadrlashga o'rgatadi, insonda yuksak va ma'naviy dunyoqarashni shakllantiradi. Bu jarayonda shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlarning individual ifodasi, ijtimoiy ahamiyatga molik xususiyatlar kombinatsiyasi, inson ijtimoiyligi shakli ekanini nazarda tutadigan bo'lsak, bu borada musiqaning ahamiyati yana bir bor oydinlashadi.

## **2.2. Yosh avlod ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishda xalq qo'shiqlarining roli.**

Xalq musiqa ijodiyoti har bir xalqning ulkan ma'naviy boyligi hisoblanadi. Uning tarkibidagi eng ommaviy, tarbiyaviy-ta'sirchan xalq qo'shiqlari o'zining g'oyaviy-badiiy mazmuni, xalq hayotining barcha qirralarini ifoda etishi kabi xususiyatlari bilan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy, ma'rifiy va estetik dunyoqarashini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Brinchi Prezidentimiz I.Karimov haqli ravishda ta'kidlaganlaridek "Har qanday xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odatlarini, an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur

etib bo'lmaydi. Bu borada tabiiyki ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan bo'lib xizmat qiladi"<sup>7</sup>.

Ta'kidlab o'tilgan ma'naviy meros, madaniy boyliklar, milliy qadriyatlar tizimida xalq qo'shiqchilik ijodiyoti alohida mavqega ega bo'lib, ular xalqimizning milliy urf-odatlarini, an'analari, bayram marosimlari, tarixiy, diniy, falsafiy qarashlari bilan chambarchas bog'liq holda izida ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarni mujassam etadi. Ilm o'rganish, insoniy fazilatlar-odob, axloq, to'g'irlik, rostgo'ylik, halollik, iymon-e'tiqod, vatanni sevish, uni qadrlash, ota-onani hurmat qilish, ona tabiatni e'zozlash kabi umuminsoniy fazilatlarni madh etuvchi qo'shiqlarni o'rganish va kuylash o'z-o'zidan yoshlar qalbida ezgu his-tuyg'ular uyg'otishi, ularda insoniy fazilatlarini shakllanishiga badiiy-emotsional ta'sir etishi shubhasiz. Chunki, badiiy yetuk, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan juda ko'plab xalq ijodiyotiga mansub kuy-qo'shiqlar, mumtoz va maqom ashulalari bevosita xalqning yaratuvchilik qudratini mahsuli bo'lib, ularning tarbiyaviy ta'sir kuchi eng avvalo ular mazmunidagi go'zallik, ulug'vorlik, jo'shqinlik, tushkunlik, g'amginlik, mayuslik his-tuyg'ularini uyg'otuvchi xususiyatlarga ega ekanligidadir. Bunday asarlarni tinglash, tahlil qilish, yaratilish tarixi, mohir ijrochilari, g'oyaviy-badiiy mazmuni haqidagi suhbatlar o'quvchi-yoshlar qalbida ezgu his-tuyg'ular uyg'otadi, ideal obrazlar timsolidagi oliyjanob fazilatlarni egallashga ilhomlantiradi.

Xalq qo'shiqlari o'zining shakl va janr xususiyatlariga ko'ra sertarmoqli bo'lib, ular orasida alla, qo'shiq, ashula, yalla, lapar va bolalar folklor qo'shiqlari ommaviyligi bilan ajralib turadi. Masalan, inson hayotida birinchi eshitgan qo'shiq – bu alladir. Alla onalarning dil to'ridan sizib chiqqan ezgu-umidlari, farzandini kelajagi haqidagi shirin orzularining ifodasidir. Allaning sehrliligi haqida buyuk alloma Abu Ali ibn Sino shunday yozadi. “Bolani mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani asta-sekin tebratish, ikkinchisi uni uxlatish uchun zarur musiqali alladir. Bu ikki narsani qabul miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badan tarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bilgan iste'dodi hosil qilinadi”.

---

7. I.Karimov. “Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch”. –T.: “Ma'naviyat”. -2008-yil, 30-bet.



Qo`shiq barmoq vaznidagi to`rtlik she`riy misralar bilan aytiladigan qo`shiqchilik ijodiyotidagi eng keng tarqalgan, sermahsul janrdir. O`zbek xalq qo`shiqlari o`zining uzoq tarixiga ega ekanligini Mahmud Qoshg`ariyning “Devonlug`atit turk” asarida keltirilgan ko`plab qo`shiqlar (arabcha “she`r”, “qasida”, “ramaz” deb tarjima qilingan) misolida ham kirish mumkin. Olim tomonidan to`plangan qo`shiqlar O`zbek yozma adabiyotini yuzaga kelishi va taraqqiy etishida zamin bo`lib xizmat qilganligini tasdiqlaydi.

Yalla va laparlar o`zining quvnoqligi, sho`xchanligi, hazil-mutoyibaga moyilligi, raqsbopligi bilan kishilarda quvnoq kayfiyat hosil qiladi, ularni ruhini tetiklashtiradi, mehnat va ijod qilishiga ilhomlantiradi. Folklor qo`shiqlarida esa xalq hayotining turli ko`rinishlari o`zining badiiy ifodasini topgan. Folklor so`zini “xalq”, “donishmandlik” degan ma`noni bildirishini o`zi ham bejiz emas. Qadim-qadimdan turli kasb egalari tomonidan har bir kasb, mehnat turi, tabiat, fasllar, oilaviy rasm-rusumlar, mavsum-marosimlar bilan bog`liq folklor musiqalari zamirida xalq donishmandligining o`ziga xos mujassamlashgan. Bunday musiqa asarlari o`quvchi-yoshlarda o`zi mansub bilgan xalqning tarixi, tili, urf-odatlarini, boqiy qadriyatlariga hurmat-ehtirom, qadrlash va vorislik qilish tuyg`ularini uyg`otadi. Bolalar qo`shiqlari esa o`zida bolalarning ruhiy olami bilan kattalar (shoir, bastakor) dunyoqarashining uyg`unlashuvi ostida shakllanib kelgan bilib, ularning aksariyati ma`lum bir harakatli o`yinlar orqali ijro etiladi. “Zuv-zuv borag`ay”, “Oq terakmi ko`k terak”, “Arg`amchi”, “Chillak”, “Lanka”, “Halinchak”, “Ramazon”, “Kim oladi-ya, shuginani-ya”, “Oyijon” kabi qo`shiqlar shular jumlasidandir. Bu kabi qo`shiqlarni kichik yoshdagi o`quvchi-yoshlarga o`rgatish orqali ta`lim sifat-samaradorligini ta`minlash, uning mazmunini boyitish va o`quvchilarni ma`naviy, badiiy, estetik kamolotini shakllantirish mumkin. Yana bir muhim jihat shundan iboratki, bolalar folklor qo`shiqlarining aksariyati biron-bir harakatli o`yinlarni bajarish orqari ijro etiladiki, bu xususiyat bolalarda topqirlik, zukkolik, epchillik, maqsad sari intilish, irodani chiniqtirish kabi hislatlarni shakllanishiga ijobiy ta`sir etadi.

Shuni unutmasligimiz kerakki, xalq qo`shiqlaridan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanishda ularni badiiy yetukligi, g`oyaviy mazmuniga ko`ra tarbiyaviy-ta`sirchanlikka ega namunalariga e`tibor berish, o`quvchi-yoshlarni turli yosh davrlariga, ovoz diapozoni, kuylash imkoniyatlariga mos kelishiga ko`ra tanlash eng muhim pedagogik talablardandir. Aksincha, yengil-yelpi, badiiy sayoz qo`shiqlar esa bola qalbini his etish tuyg`usini, estetik didini nogiron qilib qo`yishi mumkin. Shuning uchun ilk maktab yoshlaridanoq chinakam san`at asari bo`lgan xalq ijodiga xos qo`shiqlar bilan yengil-yelpi, “bir eshitgulik” qo`shiqlarni farqlash, unga nisbatan o`z munosabatlarini bildira olishdek ko`nikma va malakalarini shakllantirib borish musiqiy-estetik tarbiyaning dolzarb vazifalaridandir.

Bugungi kunda fan-texnikaning misli ko`rilmagan darajada rivojlanishi ta`sirida san`at olamida ham musiqali kliplar, o`ziga xos, ba`zida uncha-muncha odamni tushunishi qiyin bilgan yo`nalish va ko`rinishlarini yuzaga kelishi va “moda” tusiga kirishi avj olib bormoqda. Ko`pgina yoshlar o`zlari sezmaganda bunday yengil-yelpi, hech qanday badiiy sifat, shakl va mazmunga ega bo`lmagan, ayniqsa, bizning xalqimiz ruhiyatiga mos bo`lmagan, bemani tasvirlar bilan bezatilgan ohanglar ta`siriga tushib qolayotganligi tashvishli holdir. Bu haqda radio, televedeniyada, ommaviy axborotlarda ko`p garilsa-da, amaliy ishlar ko`ngildagidek emas.

Musiqaning hayotbaxsh jozibasi, qudratli ta`sir kuchi, ayniqsa barkamol avlodni tarbiyalashdagi bunyodkor kuchi haqidagi fikrlarimizni Btinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi so`zlari ham yaqqol tasdiqlaydi: “... agar insonning qulog`i yengil-yelpi, tumtaroq ohanglarga o`rganib qolsa, bora-bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning ma`naviy olamini soxta tushunchalar egallab olishi ham hech gap emas. Oxir-oqibatda bunday odam “Shashmaqom” singari milliy merosimizning noyob durdonalarini ham, Motsart, Betxoven, Bax va Chaykovskiy kabi dunyo tan olgan buyuk kompozitorlarning asarlarini ham qabul qilishi qiyin biladi”<sup>8</sup>.

---

*s I.Karimov. “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch”. –T.: “Ma`naviyat”. -2008-yil, 143-bet.*

Mustaqil rivojlanish yo'lidan dadil odimlayotgan Respublikamizni jahondagi eng ilg'or mamlakatlar darajasida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishiga erishish ko'p jihatdan yosh avlodni ta'lim-tarbiyasiga bog'liqdir. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridan eng avvalo ta'lim tizimini isloh qilish, uni milliy-ma'naviy qadriyatlar negizida shakllantirish, jismoniy sog'lom, ma'naviy yetuk, aqliy barkamol insonlarni tarbiyalashga asosiy e'tibor qaratildi.

Respublikamiz Brinchi Prezidentining bu boradagi sa'yi-harakatlari natijasida ta'lim-tarbiya masalasi jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy rivojlantirishda ustuvor yo'nalish darajasiga ko'tarildi.

Brinchi Prezidentimiz I.Karimovning O'zbekistonni buyuk kelajagini yaratishda yoshlarning ta'limi va tarbiyasiga asosiy va hal qiluvchi omil sifatida ahamiyat berib kelayotganligi bejiz emas. Yurtboshimiz tomonidan 2010-yilni "Barkamol avlod yili" deb e'lon qilinishi ham yoshlar tarbiyasi uchun mas'ul pedagog-o'qituvchilar, tarbiyachi-murabbiylar oldiga yanada mas'uliyatli, vazifalarni qo'ymoqda.

Aytish joizki, bunday mas'uliyatli vazifani ijobiy hal qilishda musiqiy-estetik tarbiyaning ham juda katta imkoniyatlari mavjud. Xalqimizning juda qadimiy, boy va teran tarixiy ildizlariga ega bo'lgan musiqa merosi hamma davrlarda ham o'zining tarbiyaviy ta'sirchan badiiy g'oyalari bilan kishilarning ma'naviy-estetik tarbiyasida muhim o'rin tutib kelgan. Mana shunday ulkan ma'naviy boylikdan yoshlarni badiiy-estetik tarbiyalashda yanada ununmli foydalanish orqali ularning qalbida ezgulik, halollik, poklik, insonparvarlik, do'stlik, vatanparvarlik, millatga, milliy qadriyatlarga muhabbat his-tuyg'ularini shakllantirishda samarali natijalarga erishish mumkin.

Zero, musiqaning tarbiyaviy ta'sir kuchi, uning bugungi kundagi ahamiyati haqidagi Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning aytgan quyidagi so'zlari ham fikrimizni tasdiqlaydi: "Musiqaning hayotbaxsh ta'sirini o'z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin... Eng muhimi bugungi kunda

musiqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda"<sup>9</sup>.

O'sib kelayotgan yosh avlodning musiqaviy dunyoqarashini shakllantirish bilan ma'naviy barkamol inson qilib tarbiyalashda umumta'lim maktablaridagi musiqa tarbiyasining roli nihoyatda kattadir. Ma'lumki, umumta'lim maktablari musiqa ta'limi va tarbiyasining bosh maqsadlaridan biri yosh avlodni milliy musiqamizga vorislik qila oladigan hamda umumbashariy musiqiy qadriyatlarni teran idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishdan iboratdir. Shuning uchun ham "Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi, tarbiyasi Konsepsiyasi"da milliy musiqa ta'lim-tarbiyasini milliy musiqa merosi negizida shakllantirish alohida ta'kidlanadi. Ko'pgina ilmiy tadqiqotlarda ham xalq musiqa merosi tarkibidagi folklor, mumtoz va maqom kuy-qo'shiqlarini yuksak tarbiyaviy-ta'sirchanlikka ega ekanligi, ularni yoshlar ma'naviy olamiga chuqurroq singdirish, badiiy-estetik tarbiyasida tig'ri va maqsadli foydalanish orqali yuqori samaradorlikka erishishi mumkinligi asoslab berilgan. Haqiqatdan ham xalq musiqa merosida eng ommaviylik kasb etuvchi qo'shiqchilik ijodiyotiga oid folklor, mumtoz va maqom asarlarining badiiy mazmuni tahlil qilinsa, ularda "xalq donishmandligi"ning eng ulug' va oliyjanob g'oyalari mujassamlanganligini kirish mumkin. Masalan, folklor yo'nalishidagi xalq qo'shiqlari o'z mazmunida xalq hayotining eng muhim, o'ziga xos turli ko'rinishlari va qirralarini aks ettiradiki, musiqa darslarida ularni o'rganish o'quvchi-yoshlarni milliy o'zligini anglashlarida beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Xalqimiz musiqa merosidagi eng mashhur va qadrlı bo'lgan mumtoz va maqom ashulalari mumtoz adabiyotimizning eng sara she'riy namunalariga bog'langan musiqiy ohanglar jo'rliğida ijro etilib, avloddan-avlodga o'tib, hozirgi kunda ham o'z ko'rki va qimmatini yo'qotmay kelmoqda. Bunday qo'shiqlarni har qanday holatda ham inson hissiyotiga badiiy emotsional ta'sir ko'rsatishi haqida

---

<sup>9</sup> I.Karimov. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch". –T.: "Ma'naviyat". -2008-yil, 141-bet.

buyuk Sharq allomalari juda ko'p va xo'b fikrlarini aytib o'tishganligi ham haqiqatdir.

O'zbek xalqining musiqa merosida alohida o'rin tutuvchi yana bir yo'nalish – bu pand-nasihat motivlari bilan yo'g'rilgan qo'shiqlardir. Odob-ahloqqa chorlovchi bunday nasihat qo'shiqlarini xalq pedagogikasining uzviy bir qismi sifatida baholash mumkin. Sharq mumtoz she'riyatining ulkan namoyondolari ijodida juda ko'plab pand-nasihat mavzusida asarlar yaratilgan va hozir ham yaratilmoqda. Bu mavzudagi she'riy namunalarning aksariyat qismi qo'shiq qilib ijro etilib, xalqimiz tomonidan doimo sevib tinglanib, ustoz-shogird an'anasida avloddan-avlodga o'tib kelgan.

O'zbek xalq musiqa merosidagi ahamiyatga molik qo'shiqchilik yo'nalishlaridan yana biri, bu tanqidiy ruhdagi hazil va hajviy qo'shiqlardir. Bu mavzudagi qo'shiqlar mazmunida salbiy illatlar, holat va ko'rinishlar, o'ziga xos kinoya, qochirim, hazil-mazax orqali talqin qilinadiki, ular ham o'z o'rnida muhim tarbiyaviy kuchga egaligi bilan ajralib turadi.

Ko'rinadiki, xalq musiqa ijodiyotining eng ommaviy, hozirjavob va keng qamrovli shakli bo'lmish, qo'shiqchilik san'atining bugungi kundagi mavqei, ta'limiy va tarbiyaviy masalalarni hal etishdagi roli va o'rne har qachongidan-da dolzarb bo'lib qolmoqda.

Lekin, umumta'lim maktablarida musiqa darslarini kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim jarayonida xalq musiqa merosi, xususan, mumtoz va maqom san'ati haqidagi mavzular, ular bo'yicha o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim va malakalar talab darajasida emas. Xalq musiqa ijodiyotini o'rganishga hozirgi kun talablari darajasida yondoshilmayapti. Bu muammolar sirasida quyidagilarni alohida ko'rsatish mumkin:

- Umumta'lim maktablarining xalq musiqa ijodiyoti, xususan, folklor, mumtoz va maqom musiqasi “yozuvlari” (fonoteka) bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi;

- Xalq musiqa ijodiyotiga oid keng ma'lumotlar olish imkonini beruvchi o'quv-uslubiy qo'llanmalarni yaratilmaganligi;

- Aksariyat ko'pchilik musiqa o'qituvchilarining mumtoz va maqom musiqasi bo'yicha yetarlicha mutaxassislik malakalariga ega emasligi;

- Har bir chorak va yil mavzusi bo'yicha tavsiya etilgan va mustaqil o'rganish mumkin bo'lgan repertuar namunalari haqida muxtasar ma'lumotlar beruvchi manbalar, maxsus nota yozuvidagi to'plamlarning yo'qligi;

- Zarur texnika vositalarini taqchilligi yoki ayrim maktablarda umuman yo'qligi va hokazo.

Qo'shiqchilik san'ati o'quvchilarning keng miqiyosida ma'naviy va axloqiy tarbiyalashda eng kuchli vositalaridan biridir. Yoshlarni qo'shiqchilik san'ati orqali ma'naviy va axloqiy tarbiyalashning muxim pedagogik prinsiplaridan biri tarbiya usullariga ma'naviy va ijodiy yondashishdir. Asarlarning ijrochilarga va tinglovchilarga tarbiya ta'sirini kuchaytirishda kullangani ma'qul.

Qo'shiqning goyaviy mazmunini she'riy asar sifatidagi badiiy xususiyatlarini, ritim – kuy va kompozitsion belgilarini taxlil kilish: qo'shiq asarining tarixiy asosi to'grisidagi, asar yaratilgan davr hamda o'sha davr sharoitining qo'shiq goyaviy mazmuniga tasiri xaqidagi suxbatlar, qo'shiq ma'daniyati mavzusidagi munozaralar, anjumanlar utkazish kabi usullar yetarli darajada pedagogik samaradorlikka ega. Mana shu san'atning kompleks strukturasi kurinadigan o'ziga xos xususiyati: kuy, musiqa, qo'shiqning matni, ijrochilik maxorati uning insonga kompleks ta'sir kilishini ta'minlaydi. Ma'lumki, qo'shiqning ijrosi kup yoklama ta'sir kursatadi: kuy va uning musikiy ifodasi insonning hissiyotiga, matn uning sezgilari va ongiga ta'sir etadi. Demak, qo'shiqning ta'siri murakkab va kuchlidir. Qo'shiq matni insonga ta'sir etishi doimiy omil sifatida kuyga jur bo'ladi va kuy ham qo'shiq she'rining ritmikasisiga moslanishi lozim. Bundan tashkari, musiqa va qo'shiqning sifatli ijro kilinishi ham goyat muximdir.

Ijro etiladigan qo`shiq kuy, uning oxangdor intonatsiali ifodalanishi, qo`shiqning she`riy asar sifatidagi g`oyaviy mazmuni va badiiy shakli nixoyat, musiqa hamda qo`shiqning yaxshi ijro etishning mujassam qotishmasidir. «Mana shu elementlarining qay biri tinglovchilari hissiyoti va ongiga eng kuchli ta`sir kursatadi?» degan savolga javob berib bo`lmaydi. Binobarin, bizningcha, mazkur barcha elementlarning birlashuvi bilangina xissiy – ma`naviy ta`sir kursatishga erishish mumkin. Qo`shiqchilik san`ati strukturasi har qaysi elementi inson shaxsining turli sohalariga: onggi, irodasi, sezgisi, muskiy idrokiga uz xolicha ta`sir kursatsa ham ijro etilayotgan qo`shiq va musiqaning jurligi yaxlit birgalikda idrok kilinadi. Ana shu ko`p yo`qlama murakkab ta`sir ham yagona ijro sifatida amalga oshadi. Qo`shiqchilik san`atining mazkur ta`siri qo`shiq jurligisiz ijro etiladigan, muskaning ta`siridan kuchlirok bo`ladi. Chunki ashulachilik san`ati uning strukturasi elementlaridan biri bulmish musiqaga nisbatan, juda katta ta`sir doirasiga ega. Extimol va shuning uchun qo`shiqchilik san`atining umuman musiqa san`atining hamma turlariga karaganda keng xalq ommasi orasida eng sevimli va eng ko`p tarqalgandir.

Qo`shiqchilik san`atining kuchi va tinglovchilarga ta`sirining harakteri mazkur elementlar bilan har bir bilan, pirovard natijalarda ularning birligi bilan belgilanadi va birlik yangrayotgan qo`shiqning idrok etayotgan kishiga yaxlit ta`sirini vujudga keltiradi. Bunda esa har elementni ko`rib chikish va qo`shib insonga ta`sir etishining asosiy jixatlarini aniqlash zarurligini anglash mumkin. Qo`shiqning kuyi qo`shiqchilik san`atining eng muxim elementi, uning emotsional o`zagi xisoblanadi. Kuyda o`ziga xos yo`sundagi oxangdor tovushlar shaklida qo`shiqning g`oyaviy va emotsional mazmuni aks etadi. Kuydan ana shu mazmunga moslik ta`lab qilish mumkin xolos. Ammo kuyni qandaydir muayyan, doimiy bir xil talablar doirasiga kiritib qo`yish to`g`ri emas. Binobarin, kuy takrorlanmas bo`lishi lozim. Unda uyg`unlik, uslub, ta`sirchanlik, ifodalash vositalarining har xil turlari bulishi mumkin. Kuy faqat quvonchli, lirik, kutarinki hissiyotlarni uyg`otmaydi. U g`amginlik, g`azablanish xolatlarni ham vujudga keltiradi. Boshqacha aytganda, kuy faqat ijobiy kayfiyatlarni emas, balki, salbiy kayfiyatlarni ham paydo qiladi. Bularning hammasi

xayotning turli tomonlarni – quvonch, tashvish, orzu-umid, ayrilik va xokozalarni aks ettiradigan qo`shiqning mazmuniga bog`lik.

She`riy asar sifatidagi qo`shiqning matni va ritmikasi kuyga tarkibiy ravishda qo`shiladi va shu tufayli bir butunlik xosil bo`ladi. Kuyning musiqiy bezalishi ham qo`shiqchilik san`atining ma`naviy va axloqiy ahamiyati va kuchini oshirishdi muxim rol o`ynaydi. Qo`shiqda qanday cholg`u asboblardan foydalanilishi, ularning qancha tug`ri tanlanilishi ham ashula nomerining ma`naviy va axloqiy ta`sirchanligini oshiradi.

Xushoxang ijroning uyg`unligi, jushkunligi, yuksak texnikasi qo`shiqning tinglovchilarga ma`naviy va axloqiy ta`sirining oshirishning shartlaridan biridir. Qo`shiqning matni, g`oyaviy mazmuni kishilarning ma`naviy tarbiyalashning kuchli vositasi xisoblandi. Mana shu vosita faqat hissiyotga emas, balki, ongga ham ta`sir kursatadi, hamdardlik tuyg`usini uyg`otadi, fikrlashga undaydi, turli ma`naviy baxolashni vujudga keltiradi ya`ni tinglovchilarning axloqiy va ma`naviy tarbiyalashda yordam beradi.

Qo`shiqchilik sa`nati strukturasi elementlari orasida qo`shiqning badiy xususiyatlari, ya`ni tili, uslubi, ritmi, she`riy mukammalligi ham katta ahamiyatga molikdir. Ba`zan qo`shiqning kuyi yaxshi-da, shuningdek, nuqsonsiz ijro etilsa, uning mukammalidan uzok bo`lib, u shaklining uxshovsizligi yoki mazmunini bema`niligi bilan ajralib turadi. Bunday qo`shiqlarning qanoatlantirmaydi, balki ularning g`ashini keltiradi.

Qo`shiqchilik sa`nati tizimida yana bir muxim element mavjud bo`lib, u qo`shiqchining yoqimli ijrosidir va mazkur element ham qo`shiqning ma`naviy va axloqiy ta`sir kursatishi ta`minlaydi. Vaxolanki, kuylash ijro etishdan ko`ra muximroqdir. Binobarin, musiqa bilan yaxshi jixozlangan qo`shiq xonandaning nunoqligi, ba`zan notug`ri ijrosi tufayli o`zining qimmatini yuqo`tadi. Qo`shiqchining maxorati deganda bizningcha eng yaxshi ovozga bulish, uning boshqara olish, yuksak darajadagi ijro texnikasi yokimli tovush tembiridan iboratdir. Ammo mana shularning hammasi mavjud bulganda ham ayrim xonandalar tinglovchilarga chinakam ta`sir



kursata olmaydilar. Vaxolanki, qo`shiqchi yukorida aytilgan sifatlardan tashkari qo`shiqni nozik ijro etishni ham bilishi lozim. Qo`shiq ijrochining samimiy xis tuyg`ulari bilan yo`g`irilishi, ayni qalbdan chiqishi kerak.

Yodlangan va quriqdan - qurik aytiladigan, ya`ni ijrochining xis-tuyg`ulari yangramaydigan qo`shiq tinglovchilar qalbiga yetib bormaydi. Demak, xonandaning samimiyligi, jo`shqinligi xalqni ma`naviy va axloqiy tarbiyalashda qo`shiqchilik san`ati yuksak darajada ta`sir ko`rsatishning zarur shartlaridan biridir.

Har bir haqiqiy qo`shiqchining o`ziga xos ijro yo`li mavjud bo`ladi. Buyuk qo`shiqchi Karuzo “qancha qo`shiqchi bor bulsa, shuncha ijro yo`llar ham bor. Lekin, mana shu aloxida yo`llar, xatto, eng to`g`ri qullansa-da, boshqa hamma qo`shiqchilar uchun yaroqsiz bulishi mumkin”, deb yozgan.

Shunday qilib, qo`shiqchilik strukturasi barcha elementlar yetarli darajada bo`lsa, bu san`at keng xalq ommasining ma`naviy va axloqiy ruhida tarbiyalashning eng muxim vosita sifatida xizmat qiladi.

Qo`shiqchilik san`atidagi hamma elementlar bir butunni tashkil etadi va ulardan, xatto bittasining buzulishi ham qo`shiqning ma`naviy va axloqiy qimmatni va tinglovchilarga ta`sir darajasini pasaytiradi. Qo`shiqlarda xalqning ma`naviy dunyosi, turmushi, tarixi va butun xayoti aks etadi.

Qo`shiqlarning mavzusi boy va xilma-xil bo`lib, ular sevgi, quvonch hamda tashvish, intilish, buyuklik va kaxramonlikni sharaflash, tarixiy vokiyalarni bayon kilish va xokozalardan iborat. Qo`shiqlarda xalqning hayotga munosabatlari, qarashlari hissiyoti va dunyo qarashi ifodalanadi.

Respublikamizda juda kup qo`shiqlar o`zbek tiliga tarjima kilinadi. Boshqa xalqlarning qo`shiqlari sevib ijro etiladi va tinglanadi. O`zbekstonda Rus, Ukrain, Beloruss, Qirg`iz, Qozoq, Tojik, Turkman, Ozarbayjon, Xind, Turk, Arab va jaxondagi boshqa xalqlarning qo`shiqlari keng ommalashgan. Qo`shiqlar xalqning xayotida mexnatida mustaxkam urin olgan. Ular xalqning uz tarixiy rivojlanishining hamma bosqichlarida sodiq yo`ldoshi xisoblanadi. Qo`shiq faqat xalqning xis –

tuygulari va intilishini ifodalanishi bilan emas, balki, goyat samarali tarbiyaviy hamda da'vatkor kuch sifatida katta ahamiyatga ega.

Qo`shiqlar "kurash va yashash" uchun yordam beradi. Mexnatga hamda vatanparlikka da'vat etadi va yetaklaydi. Ma'lumki, mavjud barcha xalqlarining qo`shiqlari o`zining mavzusi va goyaviy yunalishiga ega. Har bir xalq ana shu mavzu goyalarni o`ziga xos milliy shaklda ifodalaydi.

Biz yuqoridagi qo`shiqchilik san'atining asosiy yetakchi mavzulari sanab o`tdik. Lekin qo`shiqlarida ifodalangan xayotiy masalalar mana shular bilangina chegaralanmaydi. Xozirgi qo`shiqlari Respublikamiz xalqlari xayotining hamma jabxalari kamrab olinadi va ifodalanadi, ularning hissiyoti turmishi va ma'naviy dunyosi yoritiladi. Bu esa qo`shiqlarning ommaviyligini va tarbiyaviy kuchini oshirishni takozo etadi. Qo`shiqlarning tarbiyaviy imkoniyatlari she'r, musiqa va qo`shiqchilik ijodiyotining natijasi ekanligi shak-shubxasizdir.

Televidiniya, radio, kino, badiy jamoa dastalari, konsertlar shuningdek, boshqa respublikalar va chet ellardagi xalqlar musiqa madaniyati vakillarining konsertlari mexnatkashlarini ma'naviy va axloqiy tarbiyalashda qo`shiqchilik san'atidan foydalanishning asosiy yo`llaridir. Mana shu yo`llarning hammasi har bir kishiga umuman xalqimizga ma'naviy hamda axloqiy ta'sir ko'rsatishning muayyan sistemasini tashkil etadi. Yoshlarni qo`shiq san'ati vositali orqali ma'naviy va axloqiy tarbiyalashda mazkur san'at turining murakkab strukturaviy kompleksligiga xos xususiyatini ham nazarda tutish shart.

Kuy, musiqa, qo`shiq matni, uning goyaviy mazmuni va badiy xususiyatlari ijrochilarning maxoratlari birgalikda har qanday vokal musikiy asarning, shu jumladan qo`shiq san'atining ham strukturasi kompleksligini ifodalaydi. Ana shu komplekslik asarning kishiga kompleks ta'sir kilishini ta'minlaydi. Qo`shiq san'atining kuchi ham mana shundadir. Qo`shiq, musiqa asari kishiga har tomonlama ta'sir kursatadi: kuy va uning musikiy ifodasi kishining hissiyotiga ta'sir qilib, unda har xil xisllarini uygotadi, turlicha kayfiyatlarni xosil qiladi. Qo`shiqning matni goyaviy mazmuni faqat hissiyotga emas, balki tinglovchilarning ongiga ham ta'sir

qilib, ularning hayojonlantiradi va fikrlashga majbur etadi. Tinglovchi qo`shiqni yolgiz hissiyoti bilan emas, balki ongi bilan ham idrok qiladi. Chunki qo`shiqning matni unda ifodalangan goyaviy mazmun qo`shiqda aks etgan ma'naviy muammolarga nisbatan muayyan munosabat uygotadi. Bunday ta'sir goyat murakkab va kuchlidir.

Inson yaxshi qo`shiqni maxoratli ijroda tinglaganda unda kechinmalar vujudga kelishi tasodifiy va bejiz emas. Tinglovchilarning qo`shiqni qanday idrok etishlari, undan kanchalik ta'sirlanishlari, shuningdek, asarning tinglovchilar hissiyotiga va onggiga ta'siri musiqa qanday yangrashiga, ashulachi qo`shiqni qanday ijro etishga boglikdir. Bunga esa faqat muntazam va mashklar orqali emas, balki shu bilan birga yaxshi, ilxom va tulqinlanib ijro etish zarurligi xakida maxsus pedagogik darslar hamda suxbatlar utkazish orqali erishiladi.

Yoshlarni ma'naviy va axloqiy tarbiyalashda qo`shiq san'atidan foydalanish zarurligini yana shu bilan izoxlash mumkinki, xalq tarixni harakatlantiruvchi kuchdir, san'atning barcha turlarini shu jumladan, musiqa san'atini ta'minlaydigan xayotdagi donolikni, axloqiy poklikni jonliy manbaidir. Shunga kura madaniyat tarixida har qanday san'at turiga oid yaxshi asarlar, shu jumladan qo`shiq ijro asarlari yaratilgani bejiz emas. Xozirgi asosiy vazifasi sifatida belgilangan tarbiyaga kompleks yondashishning faqat shaxsni har tomonlama kamol toptirish emas, balki tarbiyaning vosita shakl va usullardan foydalanishning ham takozo etadi. Pedagogikada shaxsni uygun kamol toptirishdek, murakkab vazifani bajarishda yordam beradigan har muammo muxim va ahamiyatlidir.

Qo`shiq san'ati yoshlarda insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy itftixor, baylanmilalchilik, fukarolik xis – tuygularini tarbiyalaydi. San'at va xayot tugri ma'naviy va axloqiy idrok etishni, mexnat sevarlikni tarkib toptiradi.

Musiqa va qo`shiq san'ati vositalari orqali ma'naviy va axloqiy tarbiyalash tizimini rivojlanish davri muayyan tez sur'atda usmokda. Buning sababi shundagi fan – texnika inkilobi davrida inson bilib olish zarur bulgan oqimi tobora ortib bormokda, fan va texnika, shuningdek, uning oliy shakli bulmish avtomatika insonning

mexnatida, xayotida turmush mustaxkam urin olayotgan shaklida uning ma'naviy guzalligini saklash va rivojlantirish, ma'naviy va axloqiy , badiiy – ijodiy tabiatini tarkib toptirish lozim. Binobarin, jamiyatimizning eng muxim vazifasi har tomonlama yetuk, o`zida axloqiy pokligini. Ma'naviy boylik va jismoniy mujassamlashtirilgan shaxsni tarbiyalashdir. Qo`shiq san'ati ma'naviy va axloqiy tarbiyaning kadimiy va doimiy vositalaridan biridir. Mazkur tarbiyani badiiy va ma'naviy fazilatlarini hamda ularning dialektik birligi shakllantirish sifatida tushunish lozim. Qo`shiq san'ati vositalari orqali ma'naviy va axloqiy tarbiyalash tizimi maksad, vazifalar. mazmun, shakllar, yo`llar, usullarni uz ichiga oladi.

Ma'naviy va axloqiy tarbiya tizimining maqsadi axloqiy tarbiya uchun umumiy harakterga ega bulgan, ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirishdir. Uning vazifalari: qo`shiqga muxabbat xissini, tinglash va idrok etish, ijroda did hamda extiyojlarni, chinakam ijro boyligi Bilan soxta ijroni farklash iktidorini shakllantirishdan, qo`shiq ijro xayotiga ishtiyok unga ijodiy yusinda kushilish kunikmasini tarkib toptirishdan , jamiyatimiz axlokiga xos yuksak axloqiy fazilatlaridan tarbiyalashdan, guzallik yaratishda, guzallik konunlari buyicha yashashga va kishilar bilan uzaro munosabatda bulishga xavas uygotishdan iboratdir.

Qo`shiq san'ati vositali orqali ma'naviy tarbiyalashning muvaffakiyati ko'proq ma'naviy tarbiya tizimining mazmuni bilan belgilanadi. Tizimning mazmuni deganda faqat qo`shiq asarlarning mazmunini, emotsional kuchini goyaviy va badiiy mazmunini emas, balki, ularning pedagogik, tarbiyaviy ta'sirini ya'ni yosh avlodda u yoki bu ma'naviy va axloqiy fazilatlarini shakllantirish imkoniyatlarini ham tushunish lozim.

Mazkur pedogogik tizimda foydalaniladigan yo`llar – bollarni, yoshlarni qo`shiqchilik san'ati bilan boglaydigan radio, televideniye, tugaraklar, badiy xavaskorlik, qo`shiq darslari, teatr, musiqa maktablari va boshqalar xalq ijodining asl shakllaridan iboratdir.

Musiqa o`qituvchilarning, maktabdan tashkari muassasalarda hamda madaniy va ma'rifiy muassasalar xodimlarning, ma'naviy axloqiy pedagogik jixatdan bush

tayorlanishi yosh avlodni ma'naviy tarbiyalashni takomillashtirishga xalakit beradigan jiddiy kamchilikdir. Darxakikat, juda kup xollarda yaxshi musiqa va qo`shiq tugragini boshqaradi. Bu o`qituvchi yaxshi ijrochi xisoblanib, musiqa tarixi va nazariyasini puxta biladi, u shogirdlarini qo`shiqchilik olamiga kiziktirish uchun harakat qiladi. Lekin shunday bulsa ham bu muxim va nozik pedagogik jarayonining usuli bilan kurollanmagani sababli yukori natijalarga erisholmaydi.

Ko`pchilik o`qituvchilar har bir chinakam musiqa asarida kuchli aks ettiradigan ma'naviy va goyaviy muammolarni bolalarga uktira olmaydilar. Mana shularning hammasi qo`shiq san'ati vositalari orqali ma'naviy va axloqiy tarbiyalash muammolarini ilmiy jixatdan kompleks xolda ishlab chiqish va ana shu muammolar buyicha maktablarining hamda bolalarni ma'naviy va axloqiy tarbiyalash bilan shugullanuvchi xodimlar uchun metodik yavsiyalar yaratilishini bildiradi.

Pedagogika oliy o`quv yurtlari musiqa yo`nalishlarida, maktabgacha tarbiya bilim yurtlarida, musiqiy kollejlarda, maktablarda, konservatoriyada va o`rta musiqa maktablarida «O`quvchilarning qo`shiq san'ati orqali ma'naviy va axloqiy tarbiyalash metodikasi» kursini joriy etish zarur deb bilamiz. Mana shu ilmiy va amaliy vazifalarni xal kilishda ma'naviy va axloqiy tarbiya insonda faqat san'atga emas, balki butun olamga ma'naviy munosabatni shakllantirishdan iborat ekanini, tarbiyaning obektlari shaxsning faqat badiiy soxasi emasbalki xissiy ma'naviy soxalaridan iboratligini iboratligini nazarda tutish lozim. Oila va maktabning alokasi, ularning hamkorlik kilishi, yosh avlodni ma'naviy va axloqiy tarbiyalashning muvoffikiyatini ta'minlaydigan shartlaridan biridir.

Maktab va oilaning ma'naviy va axloqiy tarbiyadagi va xususan, qo`shiq san'ati orqali ma'naviy tarbiyalashdagi alokasi mustaxkam ilmiy yo`lga kuyilishi, muntazam ravishda har tomonlama amalga oshirilishi kerak. Bu aloka ma'naviy va axloqiy tarbiya tizimiga uning yo`llaridan biri sifatida kiradi. Oila va maktab bolalarni ma'naviy va axloqiy tarbiyalash buyicha olib boriladigan ishlar jiddiy rejalashtirilgan, izchil muntazam bulishi muvaffakiyatlarga erishishning zarur

shartidir. Bunda maktab asosiy rol uynashi ammo maktab bilan oila doim hamkorlik kilishi kerak.

Ma'naviy va axloqiy tarbiyalanganlik shaxsning ruhiy, xissiy, g'oyaviy va dunyoqarash xislatlarining majmui sifatida san'atga va guzallikka extiyoj ortishida, ma'naviy idrok etish va baxolashda, ma'naviy va axloqiy did va kizikishda xayotning barcha soxalarida ma'naviy va axloqiy intilishda kuruladi. Ma'naviy va axloqiy tarbiyalangan kishi o'zining maksadga muvofik ravishda kanchalik kamol topganligiga kura harakat qiladi. Chunki unda ijodiy imkoniyatlar vujudga kelgan bo'ladi.

Ma'naviy va axloqiy tarbiyaning juda ko'p vositalari orasida san'at muhim rol uynaydi. San'atning muxim ommalashgan musikiy janridan bir bulmish qo'shiq janri yoshlarni tarbiyalashda asosiy muxim rol uynaydi. Qo'shiq san'ati bilan boglanish insonning ma'naviy dunyosini boyitadi. Unda guzallik konunlari buyicha yashash ishtiyoqini uyg'otadi.

## XULOSA

1. Yosh avlod ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishda musiqa madaniyati faniniga keng imkoniyatlar yaratilganligi, musiqa haqiqiy tarbiya vositasi ekanligi, o'zbek milliy musiqa madaniyati asrlar davomida ma'naviy-axloqiy tarbiya vositasi sifatida o'rganilganligi amaliyotda o'z samarasini beradi.

2. Maktab o'quvchilarini yuksak ma'naviyat ruhida tarbiyalashning mohiyati albatta, ta'lim metodikasiga bevosita bog'liq. Musiqa tarbiyasi metodikasi tarbiya muassasalarida nafosat, musiqashunoslik fiziologiya, ruhshunoslik fanlarining umumlashtirilgan tajribalariga tayanadi. Metodikaning fan sifatida rivojlanishi

jamiyatda maorif va musiqa san'atining takomillashib borishi bilan bevosita bog'liq.

3. Yosh avlod ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishda musiqa ta'lim - tarbiyasining maqsadi va vazifalari musiqani ongli idrok etish o'quvchilar ma'naviy dunyosini boyitishda qaratilgandir. Ularning musiqiy didilar, dunyoqarashi tarbiyalanib boradi.

4. Yosh avlod ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishda bolalar qo'shiqlarini kuylashning musiqiy-pedagogik asoslari bolalarning aqliy, ahloqiy sifatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Musiqa aqlni peshlab, tafakkurni charxlaydi. Musiqa darslari va mashg'ulotlarda o'quvchilar tarbiya va milliy madaniyatimizni o'rganib, bilim saviyasini kuchaytirib borishga erishadi.

5. Inson shaxsiyatining rivojlanishida musiqa tarbiyasi bolalarda faol hissiy ta'sir ko'rsatib, ijobiy ko'rsatmalar, kechinmalar uyg'otadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani bo'yicha dasturda bir darsning o'zida ta'limning musiqa tinglash, jamoa bo'lib quylash, musiqa savodxonligi, bolalar cholg'u asboblari va ritmik harakatlar bajarish, musiqa ijodkorligi kabi bosqichlar bir –biri bilan bog'lanib yaxlit holda amalga oshirilishi nazarda tutilishi kerak.

6. Ma'naviy va axloqiy tarbiyaning juda ko'p vositalari orasida xalq qo'shiqlarining xalq qo'shiqlarining xalq qo'shiqlarining yosh avlod ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishda muxim rol uynaydi. Qo'shiq san'ati bilan boglanish insonning ma'naviy dunyosini boyitadi. Unda guzallik konunlari buyicha yashash ishtiyoqini o'ygotadi.

7. Xulosa qilib aytganda, xalq qo'shiqchilik ijodiyotidan barkamol avlod tarbiyasida keng foydalanish yo'lida ta'kidlab o'tilgan muammolarni ijobiy hal qilish jamiyatimizning ma'naviy-ma'rifiy poydevorini mustahkamlash yo'lida qiyilayotgan vaziflarni samaraliroq amalga oshirishda yangi ufqlar ochadi. Xalq qo'shiqlari muqaddas meros. Ana shu boy merosdan barkamol avlodni badiiy-estetik va ma'naviy tarbiyasida imkon qadar keng va maqsadli foydalanish bugungi kunda ushbu yinalishdagi ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan musiqa iqtuvchilari,

maktagacha va maktabdan tashqari muassasa rahbarlari, tarbiyachilarining muqaddas burchlaridan biridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch” T.Ma’naviyat, 2008-y
2. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. Toshkent, O‘zbekiston. 2000 y. 32 b.
3. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998. 322-bet.
4. Karimov I.A. Istiqlol va ma’naviyat. –Toshkent: O‘zbekiston, 1995.
5. Karimov I.A. I.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. III jild. Toshkent: O‘zbekiston. 1996, 34-bet.



6. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild, Toshkent, «O'zbekiston», 1996, 76-bet
7. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.: “O'zbekiston”, 2000. 23-24 b.
8. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Barkamol avlod orzusi. –Toshkent: O'zbekiston, 1998. –20-29 b.
9. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: O'zbekiston, 1998.- 31-61 b.
10. X.Nurmatov., Mamirov K. «Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi» T., 1999 y.
11. Omonullayev D. «O'zbek maktablarida musiqa ta'limi mazmuniga bo'lgan zamonaviy talablar» nomli ilmiy ishi T., 1990 y.
12. D.Omonullayev «Umumiy ta'lim maktablarida musiqa dasturlari» T.,1992 y.
13. Ibroximov O. Nurmatov X. «Umumiy ta'lim maktablarini 7-sinf musiqa darsi uchun metodik tavsiyanoma.» T. 1994 y.
14. Fitrat L. «O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi» 1.1993 y
15. Ibroximov O. «O'zbek xalqi musiqa ijodi» T.1994 y.
16. Fayziyev O. va boshqalar. «O'quvchilarda musiqiy nafosat tarbiyasini shakllantirish yo'llari» T.1992.
17. Mansurov A. va Karimova D. «Umumiy ta'lim maktablarining 5-sinf musiqa darsi uchun metodik tavsiyanomasi» T. 1997 y.
18. Omonullayev D.,Nurmatov X., Mamirov K. «Umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturlari» T.1992y.
19. Nurmatov X. va Ibragimov O. «Oltinchi sinfda musiqa darslari uchun qo'llanma». T.,1996

20. Gudkova E., Qo'ldoshev L. «Musiqqa darsligi uchun metodik qo'llanma» (4- sinf)  
T.1978 y.

21. Internet ma'lumotlari

-[WWW.Ziyonet](http://WWW.Ziyonet).

-[Pedagog.uz](http://Pedagog.uz).